



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
OLMON TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

403-guruh talabasi Nurmatova Shahnozaning
5141400 - xorijiy tillar va adabiyoti (olmon tili) Ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun "Umumta'lim maktablari uchun zamonaviy
o'quv lug'atlari tuzish tamoyillari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar:

prof. Umarxo'jayev M.

ANDIJON – 2014

Mundarija

Kirish

BMI mavzusining dolzarbligi -----	5
BMI mavzusining ishlanganlik darajasi-----	6
BMI mavzusining maqsad va vazifalari-----	6
BMI mavzusining predmeti va obyekti-----	6
BMI mavzusining tadqiqot metodlari-----	6
BMI mavzusining metodologik asosi-----	6
BMI mavzusining ilmiy yangiligi-----	7
BMI mavzusining amaliy ahamiyati-----	7
BMI mavzusi natijalarining amalda sinalganligi-----	7
BMI mavzusi strukturasi-----	8

I Bob. Zamonaviy o`quv lug`atlari tuzish tamoyillari

1.1. Lug`atshunoslik mustaqil fan sifatida -----	9
1.2. G`arb va sharq lug`atshunosligi -----	14
1.3. Lug`at tuzishda so`z muammosi -----	35
1.4. Lug`at tuzish tamoyillari va klassifikatsiyasi. -----	44
1.5. Zamonaviy lug`atlar tuzishning maktablar uchun ahamiyati -----	51

Xulosa -----	55
---------------------	-----------

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati -----	59
---	-----------

Umumta'lim maktablari uchun zamonaviy o'quv lug'atlari tuzish tamoyillari.

Reja:

Kirish

BMI mavzusining dolzarbligi
BMI mavzusining ishlanganlik darajasi
BMI mavzusining maqsad va vazifalari
BMI mavzusining predmeti va obyekti
BMI mavzusining tadqiqot metodlari
BMI mavzusining metodologik asosi
BMI mavzusining ilmiy yangiligi
BMI mavzusining amaliy ahamiyati
BMI mavzusi natijalarining amalda sinalganligi
BMI mavzusi strukturasi

I Bob. Zamonaviy o'quv lug'atlari tuzish tamoyillari

- 1.1 Lug'atshunoslik mustaqil fan sifatida.
- 1.2 G'arbda va sharqda lug'atshunoslikning rivojlanishi.
- 1.3 Lug'at tuzishda so'z muammosi.
- 1.4 Lug'at tuzish tamoyillari va klassifikatsiyasi.
- 1.5 Zamonaviy lug'atlar tuzishning maktablar uchun ahamiyati.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda huquqiy demokratik va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida barkamol shaxsni tarbiyalash, jamiyatda o'zining munosib o'rniga ega bo'ladigan, ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan yuksak bo'lgan yosh avlodni voyaga yetkazishga jiddiy e'tibor berilmoqda.

Yurtimizda izchillik bilan o'tkazilayotgan islohatlarning pirovard maqsadi, vatanimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun har jihatdan mukammal rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish davlatimizni eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni dunyoqarashi zamonaviy bilimlar, yuksak ma'naviyat va axloqiy qadriyatlar asosida shakllanmog'i zarur. Yoshlarning hayotda o'z yo'lini topib olishlarida hamda mustaqil to'g'ri fikrlaydigan yetuk shaxs, zamonaviy kadr bo'lib yetishlari uchun jismonan sog'lom, ma'nan yetuk va aqlan rivojlangan bo'lishlari talab etiladi.

Hozirgi paytda mamlakatimizda chet tillarini o'rganishga va ularni o'qitishga katta e'tibor berilmoqda, chunki bugungi kunda jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rniga ega bo'lishga intilayotgan mamlakatimiz fuqarolarining chet tillarni yuqori saviyada bilishi muhim ahamiyatga ega, zero, bizning xalqimiz o'zining buyuk kelajagini dunyo xalqlaridan ayro holatda tasavvur eta olmaydi. Demak chet tillarini o'rganish, o'rganganda ham jahon andozalariga mos ravishda o'rganish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda yurtdoshlarimizni ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodni xorijiy tillarga o'qitish umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim vazifaga aylandi. Chunki hozirda insonlarning chet tillarni bilishi ham ijtimoiy-siyosiy ham ma'naviy-ma'rifiy ahamiyat kasb etmoqda.

Til bilgan – el biladi. Dunyo ellarini, odamlarini bilish, ular bilan ijtimoiy-ma'naviy hayotning turli sohalarida erkin muloqot qila olish esa taraqqiyotga xizmat qiladi. 2004-2009 yillarda mamlakatimizda ta'lim infratuzilmasi yanada mukammallashti. Yaratilgan zarur shart-sharoitlardan samarali foydalanish davri

boshlandi. Yoshlar sportini ommalashtirish, musiqiy ta'limni chuqurlashtirish, informatsion texnologiyalarni puxta o'zlashtirish kabi dolzarb vazifalar qatorida endi chet tillarini ham puxta o'rganish mas'uliyati o'rin oldi.

Ta'kidlash joizki, Prezidentimizning "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori ijtimoiy-madaniy hayotimizda katta voqea bo'ldi. Qarorda xalqaro aloqalar va badiiy tarjimoni yanada rivojlantirishga, chet tillarini mukammal biladigan yosh avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilgan.¹

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Chet tillarini o'rganishda bir qancha vositalardan foydalaniladi. Ularning ichida lug'atlarning o'rni beqiyosdir. Lug'at- so'z xazinasini, undan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish inson bilimini kengaytirish, lug'at boyligini oshirishda hamda fikrni to'g'ri va ravon ifodalashda muhim omildir. Lug'atlar turli maqsadlarda tuziladi va ularni o'rganish, o'z tilining imkoniyatlarini to'laroq egallashda, savodxonlikni oshirishda, nutq madaniyatini yuksaltirishda muhim ro'l o'ynaydi. Lug'atlarni o'rganishning ahamiyati shundaki, lug'atlar bizning so'z boyligimizni kengaytiradi. Lug'atshunoslik boy tajribaga ega bo'lgan sari uning ham fan sifatida o'z nazariyasi shakllanmoqda. Lug'atlar oldiga qo'yiladigan talablarning rang-barangligi lug'at turlarining xilma-xilligi bu sohaning kelajagi borligidan dalolat beradi. Xalqning o'sib borayotgan talablarini qondirish maqsadida lug'atning yangi-yangi turlari yaratilishi tabiiydir. Hozirgi lug'atshunoslikda lug'atlarning zamonaviy turlari ishlab chiqilmoqda. Bunga misol qilib, ideografik lug'atlarni keltirishimiz mumkin. Lug'atshunoslar bugungu kunda ushbu lug'atlar ustida ish olib bormoqdalar. Ideografik lug'at ma'lum so'z bilan ma'nolari bog'lanuvchi barcha so'zlarni qamrab oladi. Bu turdagi zamonaviy lug'atlar ayniqsa, maktablarda yaxshi samara berdi.

¹ Karimov I.A. "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2012, 10 dekabr

BMI mavzusining ishlanganlik darajasi. Mazkur mavzuning aynan o'ziga bag'ishlangan ilmiy maqola va malakaviy ish, magistrlik dissertatsiyalari mavjud emasligi bizga shu mavzuda o'quv malakaviy ishni o'rganish uchun turtki bo'ldi. Olmon tilida, rus tilida maktablar uchun zamonaviy o'quv lug'atlarini yaratishga bag'ishlangan ishlar bor, ammo biz bu sohada Amerika, Yevropa lug'atshunoslaridan ancha orqadamiz. Lug'at yaratish ayniqsa, zamonaviy chet el lug'atlari bilan bellasha oladigan lug'atlar yaratish o'zbek tilshunosligining hamon og'riqli nuqtalaridan biri bo'lib qolmoqda.

BMI mavzusining maqsad va vazifalari. Ushbu bitiruv malakaviy ishidan kozlagan maqsadim –maktablar uchun zamonaviy lug'atlar tuzish tamoyillarini o'rganish va ularni takomillashtirish bōyicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni bajarishim kerak:

Olmon tili lug'atshunosligini o'rganish;

Olmon tilida yaratilgan lug'atlarni tahlil qilish;

Lug'at turlarini o'rganib chiqish;

Lug'at tuzish tamoyillarini puxta o'rganish;

Maktab darsliklaridagi lug'atlarni tahlil etish;

BMI mavzusining predmeti va obyeksi. Mavzuning obyeksi -zamonaviy bir tilli va ko'p tilli lug'atlarni tahlil qilib o'rganish jarayonidir. Mavzuning predmeti sifatida olmon tilida yaratilgan zamonaviy bir tilli va ko'p tilli lug'atlar olindi.

BMI mavzusining tadqiqot metodlari. Bitiruv malakaviy ishi yuzasidan tegishli sohaviy adabiyotlar bilan tanishdim. Ilmiy tadqiqotga olmon tilshunosliginig so'nngi yillarda yaratilgan lug'atlar haqidagi nazariyalari asos qilib olindi. Shu bilan bir qatorda olmon tili leksikologiyasi haqidagi darsliklar nazariy manba bo'lib xizmat qildi. Ishda chog'ishtirish va tavsifiy metodlardan foydalanildi.

BMI mavzusining metodologik asosi. Ushbu bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

I.A.Karimovning Ta'lim -tarbiya to'g'risida gi fikrlari va ko'rsatmalari, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida "gi qonuni"², "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"³, davlat Ta'lim standartlari va 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida " gi qarori olindi.

BMI mavzusining ilmiy yangiligi. "Zamonaviy lug'at tuzish tamoyillari (maktablar uchun)" mavzusi lug'atshunoslikda endi o'rganilayotgan mavzudir. Ushbu ishni o'rganish jarayonida bir qancha zamonaviy lug'atlar bilan tanishdim. Bu lug'atlarni o'rganish jarayonida o'zbek maktablari uchun bunday zamonaviy lug'atlar zarurligi to'g'risida to'xtalib o'tdim.

BMI mavzusining amaliy ahamiyati. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng barcha davlatlar qatori Germaniya bilan ham o'zaro teng huquqlilikka asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni o'zaro rivojlantirib kelmoqda. Bu esa albatta yurtimizda olmon tili, adabiyoti va madaniyatiga bo'lgan qiziqishning kun sayin ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Nemis tili maktab, AL, KXK va Oliy o'quv yurtlarida o'rganiladi. Bunda tilning nafaqat grammatikasi va tarixi, balki bu tildagi adabiyot, san'at va madaniyat asarlari ham o'rganiladi. Quyida yoritilgan bitiruv malakaviy ishi natijalari pedagogik amaliyotda qo'llanilishi mumkin. Ushbu bitiruv malakaviy ishidan maktablar uchun chet tili sifatida olmon tilini o'zlashtirayotgan o'quvchilarning o'quv dasturlarida keng foydalanilishi bilan ahamiyatlidir.

BMI mavzusi natijalarining amalda sinalganligi. Har bir ish u amaliyot jarayonida nechog'lik sinalganligi bilan ahamiyatlidir. Men ushbu bitiruv malakaviy ishimni Andijon shahar 28-o'rta umumta'lim maktabining 5-A,B, sinflaridagi darsdan tashqari mashg'ulotlar va chet tili to'garaklarida amaliyotda sinadim. Bu o'quvchilarda katta qiziqish uyg'ota oldi. Sababi ushbu zamonaviy lug'atlar o'quvchini o'ziga jalb qila olishi va qiziqtirishi bilan boshqa lug'atlardan ajralib turadi.

² O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida "gi qonuni, 1997

³ O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", 1997

BMI mavzusi strukturasi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi 4 bo'limdan iborat:

1. Kirish.
2. I Bob.
3. Xulosa
4. Foydalanilgan adabiyotlar.

BMI ning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ishlanganlik darajasi, ishning maqsad va vazifalari, predmeti va obyekti, ishning tadqiqot metodlari, ishning metodologik asosi, ilmiy yangiligi, ishning amaliy va ilmiy qiymati, ishning strukturasi kabilar berilgan.

I Bob esa 5 bo'limdan iborat:

1. Lug'atshunoslik tarixi.
2. G'arbda va sharqda lug'atshunoslikning rivojlanishi.
3. Lug'at tuzishda so'z muammosi.
4. Lug'at tuzish tamoyillari va klassifikatsiyasi.
5. Zamonaviy lug'atlar tuzishning maktablar uchun ahamiyati.

Shuningdek, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati berilgan. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati – asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

1.1 Lug'atshunoslik mustaqil fan sifatida.

So'z – serqirra hodisa. So'z – insonlarning fikri, tushunchasi, his-tuyg'ularini ifodalabgina qolmay, uni o'z-o'zini yuksaltirishga, rivojlantirishga xizmat qilishi shubhasizdir. Chunki, so'z tafakkurning in'ikosi bo'lmish tilning mahsulidir. Ulug' bobokalonimiz Mir Alisher:

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,

Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin, - deya e'tirof etganlar.

Har bir tilning lug'at tarkibi shuningdek, tildagi so'zlar majmui leksika deb yuritiladi. Shunga ko'ra leksika so'zi adabiy tilning lug'at tarkibini ifodalash uchun ham, biror sheva yoki dialektlarning lug'at tarkibi ma'nosida ham, ma'lum bir kasb-hunar kabi sohaga oid lug'at tarkibi ma'nosida ham, hatto ayrim yozuvchi asarining so'zlari majmui ma'nosida ham qo'llanaveradi.

Leksikologiya leksikani o'rganadi, leksika esa o'z navbatida, so'zlardan yoki so'zlarning majmuidan iborat bo'ladi. So'z haqida gap ketganda ko'pincha, unga asosiy til birligi til va nutqning eng muhim unsurlaridan biri, "tilning eng kichik birligi" tarzida tariff beriladi. Lekin so'z aslida murakkab xususiyatga egadir. So'zga uch- to'rt og'iz so'z, hatto uch- to'rt jumla bilan ham to'la tarif berib bo'lmaydi.

Har bir til shu tilga mansub xalqning moddiy va ma'naviy dunyosini butun borlig'icha o'zida aks ettiruvchi yorqin ko'zgu bo'lib, insonning mehnat va ijtimoiy faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois jamiyatda sodir bo'lgan har qanday voqelik yoki o'zgarish birinchi navbatda, tilda o'zini namoyon etadi. Tarixiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot davomida tilning lug'at tarkibi tadrijiy ravishda doimo rivojlanib, boyib boradi. Bu boyish jamiyat rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan yangi tushunchalarni ifodalovchi, yangi so'zlar nomlarining vujudga kelishi hisobiga sodir bo'ladi. Tillarning lug'at tarkibi uning leksik semantik sistemasi doimo o'zgarib boradi, ayni zamonda, jamiyat uchun keraksiz holga kelgan tushuncha yoki predmet nomlarini ifodalab kelgan so'zlarning arxaik so'z sifatida iste'moldan chiqib, uning o'rnini yangi so'zlar egallaydi. Lekin iste'moldan chiqib, uning o'rnini yangi so'zlar egallaydi. Lekin iste'moldan

chiqqan so'zlarning miqdori yangi paydo bo'lgan so'zlarga nisbatan ancha kam bo'l adi. Lekin ba'zi hollar buning aksi ham bo'lishi ham mumkin. Albatta lug'aviy birliklarning iste'moldan chiqishi lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida tilning tabiati, til taraqqiyoti qonuniyatlari asosida ro'y beradi. Bunda ikki asosiy hodisa kuzatiladi:

1. Jamiyat va tabiatdagi narsa-hodisalarning yo'qolishi bilan ularning ifodachisi bo'lgan so'zlar ham bo'ladi. Hozirgi til strukturasidan chiqadi va tarixiy so'zlarga aylanadi.

2. Tilning takomillashuvi jarayonida narsa-hodisaning mohiyati aniq to'la va to'g'ri ifodalay olmaydigan lug'aviy birliklar iste'moldan chiqib, ularning o'rini hodisani aniq, to'g'ri va to'la ifodalaydigan lug'aviy birliklar egallaydi.

So'z hodisasi tilshunoslikda deyarli barcha sohalarda, lingvistik bo'limlarda tadqiq etiladi. Xususan, leksikografiya ham. Har bir xalqning betakror milliy boyligi uning o'z so'zlari hamda turg'un iboralaridir. Zamon va makon ta'sirida tilning lug'at boyligi doimiy ravishda rivojlanib boradi. Hayot, turmush tarzi, taraqqiyot va kashfiyotlar yangi-yangi so'zlar, tushunchalarni dunyoga keltiradi, ba'zi so'zlar esa eskirib iste'moldan chiqadi. Ana shunday dinamik rivojdagi bebaho boylikni o'z vaqtida tarix zarvaraqlariga muxrlash, tilning oltin sahifalarini durlar bilan to'ldirib borish faqat matonatli, zahmatkash, fidokor tilshunos siymolargagina nasib etadi. Bunday buyuklarning nomi abadiy hurmatda bo'ladi.

“Lug'at - muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjasida mavjud bo'lgan, u yoki bu yozuvchi asarlarida uchraydigan so'zlar yig'indisi leksika; so'zlar (yoki morfemalar, so'z birikmasi, iboralar va muayyan tartibda (alifboli, uyali, mavzuli) joylashtirilgan, tavsiflanuvchi birliklar, ularning kelib chiqishi, ma'nolari, yozilishi, talaffuzi, uslubiy mansubligi, boshqa tillarga tarjimai haqida ma'lumotlar jamlangan kitob”.

Leksikografiyaning vazifasi juda keng bo'lib, u qanday lug'at tuzish talab ehtiyojlariga javob berishi lozimligini ham o'z ichiga oladi. Shuni aytib o'tish kerakki, kishilarning yodda tutib qolish qobiliyati naqadar kuchli bo'lmasin, bir tildagi barcha so'zlarni, ularning xilma-xil ma'nolarini esda saqlab qolish

nihoyatda qiyin va mumkin ham emas. Shuning uchun ham kishilarning ana shunday ehtiyojini qondirish uchun turli xildagi lugʻatlar tuzilgan va hozir ham tuzilmoqda. Hozirgi kunda ikki tillik tarjima lugʻati, koʻp tillik tarjima lugʻati, izohli lugʻat, ikki tillik differensial lugʻat, terminologik lugʻat, tarixiy lugʻat, etimologik lugʻat, frazeologik lugʻat, idiomatik soʻzlar lugʻati, orfografik lugʻat va ensiklopedik lugʻatlar kishilarning madaniy ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilmoqda.

Turli turdagi lugʻatlar tuzish umummadaniy ahamiyatga egadir. Lugʻat alfavit tartibida tuzilib, qulay qoʻllanma sifatida xalq ommasiga bilim beradi, madaniy funksiyani bajaradi.

Lugʻatlar maʼnaviy madaniyat sohasida muhim oʻrin egallaydi, ularda jamiyatning maʼlum davrda erishgan bilimlari aks etadi. Lugʻatlar har birimizga ilmiy jarayonda toʻgʻri va aniq ishlashga, real va obyektiv fikrlash va tasavvur qilishga yordam beradi. Leksikografiya deb leksikologiyaning lugʻatlar tuzish nazariyasi va amaliyoti bilan shugʻullanuvchi qismiga aytiladi. Umuman olganda esa hozirgi zamonda “leksikografiya” termini 4 xil maʼnoda qoʻllaniladi:

- 1) Lugʻat tuzish tamoyillarini oʻrganuvchi fan, lugʻat tuzish nazariyasi.
- 2) Lugʻat tuzish.
- 3) Mazkur til lugʻatlari toʻplami.
- 4) Mazkur davlatda tuzilgan lugʻatlar toʻplami.

Yuqorida leksikografiyaning lugʻatchilik nazariyasi bilan ham shugʻullanishi, yaʼni nazariy leksikografiyaga ishora qilib oʻtgan edik. Bu soha lugʻatshunoslik deb ham ataladi. Nazariy leksikografiya lugʻatlarning umumiy prinsiplari va tipologiyasini ishlab chiqish hamda yangi lugʻat turlarini yaratish, lugʻat strukturasini yaratish yoki oʻzgartirish (masalan, maqola va havolalar tartibi, illyustratsion materiallar, soʻz va tushunchalarga izohli yoki lingvistik tasnif berish va h.) singari dolzarb vazifalar bilan shugʻullanadi.

Soʻzlarning biror maqsadda toʻplanib, tartibga solingan yigʻindisi lugʻat deyiladi. Lugʻatda soʻzlar muayyan tartibda joylashtirilgan, tavsiflanuvchi birliklar, ularning kelib chiqishi, maʼnolari, yozilishi, talaffuzi, uslubiy mansubligi,

boshqa tillarga tarjimai haqida ma'lumotlar jamlangan kitobdir. Lug'atlar ma'naviy madaniyat sohasida muhim o'rin egallaydi, ularda jamiyatning ma'lum davrda erishgan bilimlari aks etadi. Lug'at bir qator ijtimoiy vazifalarni bajaradi:

-o'quvchi ga muayyan hodisa haqida ma'lumot beradi;

-uni o'z va o'zga tillardagi so'zlar bilan tanishtiradi;

Tilni, uning lug'at tarkibini takomillashtirish va tartibga solishga yordam beradi:

Lug'at tuzishning nazariy va amaliy tamoyillari haqidagi soha leksikografiya deyiladi. Bu so'z grek tilidan olingan bo'l ib lexicon- lug'at, grapho- yozaman, degan ma'nolarni anglatadi. Lug'at tuzuvchi mutaxassislar leksikograflar deyiladi. Lug'at tuzish tamoyillari va metodikasini ishlab chiqish, leksikograflar ishini tashkil qilish, lug'at tuzish, ularni sistemalashtirish va saqlash leksikografiyaning vazifasidir. Lug'atlarning so'zlar va iboralarning qo'llanilishi nazariy tadqiq etishda hamda tilga amaliy o'rgatishda ahamiyati katta. Tilning lug'at tarkibi o'z imkoniyatlari va uni bilish darajasiga ko'ra cheksiz xususiyatlarga egadi. Tilning lug'at sostavi tinimsiz boyib boradi. Eski so'zlar o'rnini yangi so'zlar egallaydi, boshqa tillardan so'zlar o'tib, o'zlashadi, yangi so'zlar yasaladi, yangi ma'nolar hosil qilinadi. Lug'atlar turli maqsadlarda tuziladi va ularni o'rganish, o'z tilining imkoniyatlarini to'laroq egallashda, savodxonlikni oshirishda, nutq madaniyatini yuksaltirishda muhim rol o'ynaydi. Lug'atlarni o'rganishning ahamiyati shundaki, lug'atlar bizning so'z boyligimizni kengaytiradi. Leksikografiya boy tajribaga ega bo'la borgan sari uning ham fan sifatida o'z nazariyasi shakllanmoqda. Lug'atlar oldiga qo'yiladigan talablarning rang-barangligi lug'at turlarining xilma-xilligi bu sohaning kelajagi porloqligidan darak beradi.

Lug'atlar turli maqsadlarda tuziladi. Shu sababli uning turlari ham ko'p. Lug'atlar tildagi so'zlarni iboralarni, maqol va matallar va turli nomlarni ma'lumot tartibida o'z ichiga olgan kitoblardir. Bunday lug'atlar o'tmishda qo'lyozma shaklida ham bo'lgan. Leksikografiyaning vazifa doirasiga quyidagilar kiradi:

a) Lug'at tuzish prinsiplari va metodikasini ishlab chiqish;

b) Lug'at tiplari va turlarini aniqlash;

- c) Lug'atshunoslikning ishini tashkil qilish
- d) Lug'at tuzish uchun asos bo'ladigan kartoteka fondini yaratish
- e) Lug'atchilik tarixini o'rganish
- f) Lug'at tuzish bilan shug'ullanish.

Leksikografiya deb leksikologiyaning lug'atlar tuzish nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanuvchi qismiga aytiladi. Umuman olganda esa hozirgi zamonda "leksikografiya" termini 4 xil ma'noda qo'llaniladi:

1. Lug'atlar tuzish tamoyillarini o'rganuvchi fan, lug'at tuzish nazariyasi.
2. Lug'at tuzish.
3. Mazkur til lug'atlari to'plami.
4. Mazkur davlatda tuzilgan lug'atlar to'plami.

Maqsad va vazifalariga ko'ra leksikografiya ikkiga bo'linadi:

- a) ilmiy leksikografiya lug'atchilikning nazariy masalalari bilan shug'ullansa;
- b) amaliy leksikografiya bevosita lug'at tuzish ishlari bilan mashg'ul bo'ladi.

Leksikografiya muhim ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Bular quyidagilarda ko'zga tashlanadi:

- 1) ona tilini va boshqa tillarni o'rgatishga xizmat qiladi;
- 2) ona tilini tasvirlash va me'yorlashtirish vazifasini o'taydi;
- 3) tillararo munosabatlarni ta'minlaydi;
- 4) til leksikasini ilmiy tekshiradi va talqin qiladi;

1.2.G'arb va sharq lug'atshunosligi.

Dunyo leksikografiyasi ming yillik tarixga ega bo'lsada, uning asosiy rivoji keyingi ikki- uch asrga to'g'ri keladi. Ilk bor o'z sonli so'zlar va iboralardangina tashkil topgan qo'lyozmalardan boshlangan lug'atlar hozirgi kunga kelib tillarning yuz minglab so'zlarini o'z ichiga olib, minglab adadda chop etilmoqda. Keyingi yillarda leksikografiyaning faqatgina amaliy tomoni emas, balki nazariy yo'nalishi, obyekti, predmeti shakllandi. Lug'at tuzish nazariyasi, amaliyoti tilshunoslikning maxsus sohasiga aylandi. Lug'atshunoslik tilshunoslikning mana shunday o'ta mashaqqatli, o'ta mas'uliyatli sohasi bo'lganligi sababli ushbu savobli yo'nalish bilan yetuk, fidokor, millatparvar olimlar shug'ullanmoqdalar.

Lug'at tuzish ishining naqadar mashaqqatli ekanligi, tuzuvchilarning fozil, sabrli, har qanday mayda- chuyda elementlarga ham o'ta sinchkovlik bilan yondashuvchi bo'lishlari zarur. Shu o'rin da o'rta asrlarning mashhur filologi Yustus Skaligerning lug'at tuzishning naqadar mashaqqatli ekanligini quyidagi misralardan ham bilsa bo'ladi: „Agar kimdir og'ir mehnat-u, azoblarga mahkum etilgan bo'lsa, unga temirchi-yu, konchilar mashaqqatini ravo ko'rmay qo'ya qolda, unga lug'at tuzishni buyur, shu ishning o'ziyoq barcha mashaqqatlarning mashaqqatlirog'idir“. Bu misralarga qo'shimcha qilib L.V. Sherbaning lug'atshunoslikning ahamiyati va mashaqqatlarini inobatga olgan holda „Men tilshunoslikda lug'atshunoslikdan ko'ra jiddiyroq sohani bilmayman“ degan so'zlarini keltirish o'rinli bo'ladi. Sherbaning 1939 yil 27 sentabr kuni Sobiq Ittifoq Fanlar Akademiyasi til va adabiyot bo'limida qilgan „Опыт общей теории лексикографии“ nomli dokladi nazariy leksikografiyaning shakllanishiga asos soldi. Olimning lug'at turlarini ularning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zaro qiyoslab o'rganish va tahlil qilish nazariyasi hozirgi kunda ham o'z kuchini yo'qotgani yo'q. Sharqiy yevropa hamda rus lug'atshunosligi tajribasidan kelib chiqqan holda olim olti qarama-qarshi prinsiplar asosida lug'atlarning quyidagi tiplarini taklif etadi:

1. AkademieWörterbücher- Nachschlagewörterbücher

2. Enzyklopädisches Wörterbuch- allgemeines Wörterbuch. Vollständiges einsprachiges Wörterbuch.
3. 3. Thesaurus- Bedeutungs- bzw.
4. Alphabetisches Bedfeutungs- bzw. Übersetzungswörterbuch- ideographisches Wörterbuch
5. Bedeutungswörterbuch- zwei oder mehrsprachiges Übersetzungswörterbuch
6. Synchronisches Wörterbuch- historisches (diachronisches) Wörterbuch

L.V.Sherbaning lug'atlar tipologiyasi so'nngi yillarda turli tillar lug'atlarini tuzish tajribasi asosida rivojlantirildi. Masalan, I.V.Raxmanov L.V.Sherba nazariyasi asosida olmon tili lug'atlarini to'rt guruhga ajratadi:

1. Wörterbücher, die auf die Herkunft des wortes und die Entwicklung seiner Bedeutung ergeben:
 - a) etymologisches Wörterbuch
 - b) historisches Wörterbuch
2. Wörterbücher, die Wortbedeutung und den Wortgebrauch in der gegenwartsprache erschließen:
 - a) Bedeutungswörterbuch, Handwörterbuch oder erklärendes Wörterbuch
 - b) zweisprachiges Wörterbuch
 - c) Stilwörterbuch
 - d) phraseologisches Wörterbuch
 - e) Synonymwörterbuch
 - f) Sachgruppenwörterbuch
 - g) Fremdwörterbuch
 - h) Fachwortebuch
 - i) Rotwelsch-Wörterbuch
 - j) mundartliches Wörterbuch
3. Wörterbücher, die den Lautbestand und die Rechtschreibung der Wörter angeben:
 - a) Aussprachewörterbuch

b) Rechtschreibungswörterbuch

4. Wörterbücher, die die Begriffe (Gegenstände, Erscheinungen sowie Eigennamen) erschließen:

a) Konversationwörterbuch oder- lexikon

b) Sachwörterbuch

c) Bildwörterbuch

So'ngi yillarda nazariy leksikografiyaning bir qator yangi sohalari atroflicha o'rganildi. Chunki lug'at tuzish hozirgi kunda kompleks ilmiy va tashkiliy muammolarni hal qilish orqali amalga oshirilishi tabiiy. Bu o'rinda leksikografiyaning keyingi yillarda tez rivoj topayotgan "o'quv leksikografiyasi"- "Unterrichtsbezogene Lexikographie" yo'nalishi yutuqlari diqqatga sazovordir. Bu sohada rus tilshunoslari A.A.Novikov, P.N.Denisov, V.V.Morkovkinlarning ilmiy va amaliy ishlarini alohida ta'kidlash lozim.

O'quv leksikografiyaning shakllanishida P.N.Denisovning doktorlik dissertatsiyasi, bir qator ilmiy maqolalari, " Очерки по русской лексикологии и учебной лексикографии" monografiyasi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Jahon tillari nazariy leksikografiyasi tarixiga nazar tashlasak hamda ushbu yo'nalishni tilning tarixi, grammatikasi, fonetikasi va boshqa sohalarni o'rganuvchi fanlar bilan qiyoslasak, leksikografiya sohasida qilingan ilmiy tadqiqotlar daryodan tomchiga o'xshaydi.

Mashhur leksikograf L.Zgustaning yozishicha, dunyoda leksikografiya bo'yicha qilingan ishlar adadi yigirmataga yaqin xolos ekan.

L.A.Novikov o'ziga xos "O'quv lug'atlari" tipologiyasini taklif qiladi. Uning fikriga ko'ra o'quv lug'atlari paradigmatic-sintagmatik, semaseologik-onomasiologik, bir tilli-ikki tilli lug'atlar hamda tilning maxsus sistema birliklari-so'z yasash, chastotali, valentlik va distributsiya lug'atlaridan iborat bo'lishi lozim.

Turli vaqtlarda ham son, ham sifat nuqtai nazaridan turlicha tuzilgan olmon tili lug'atlari klassifikatsiyasi taniqli lingvistlar E.Agricola, V.Flaysler, X.Protse

tomonidan ishlab chiqilgan hamda “Kleine Enzyklopädie. Die deutsche Sprache”, Leipzig, 1969 kitobida uch nuqtai nazardan yoritilgan.

1. Nach dem Sprachträger
2. Nach dem Entwicklungsstufen der Sprache
3. Nach der Sprachstruktur

Die erste der Wörterbücher berücksichtigt das Verhältnis “Personlichkeit-Sprachgemeinschaft”. Hier unterscheidet man:

1. **Individualwörterbücher**, z.B. E.Reichel. Kleines Gottsched-Wörterbuch, 1902; P.Fischer. Goethe-Wortschatz, 1929; das neue, auf fünf Bände berechnete “Goethe-Wörterbuch”, “Marx-Engels-Wörterbuch”. Eine Sonderform dieses Typs ist das Wörterbuch zum Einzelwerk eines Autors (z.B. E.Merker, Wörterbuch zu Goethes “Werther”, 1958; F.Strehlke. Wörterbuch zu Goethe “Faust”, 1891).
2. **Mundart-, fach-und gruppensprachliche Wörterbücher**. Sie beschreiben den Wortschatz einer Sprachgemeinschaft, die landschaftlich, beruflich oder sozial begrenzt ist (z.B. Woßidlo-Teuchert, “Mecklenburgisches Wörterbuch”, 1937; F.Kluge, “Deutsche Seemannssprache”, 1911; S.A.Wolf, “Wörterbuch des Rotwelschen. Deutsche Gaunersprache”, 1956).
3. **Hoch-und nationalsprachliche Wörterbücher**, z.B. “Deutsches Wörterbuch” von J und W.Grimm, das “Wörterbuch der deutschen Gegenwartssprache” (WDG), hrsg. Von R.Klappenbach und W.Steinz.

Die zweite Gruppe der Wörterbücher, beruht auf der Unterscheidung von Synchronie-Diachronie. Eine consequent diachronische Darstellung des Wortschatzes bietet das historische Wörterbuch. Zu diesem Typ gehört das umfangreiche “Deutsche Wörterbuch” von J. und W.Grimm, 1854 angefangen und erst 1961 beendet. Es verfolgt den deutschen Wortschatz von den frühesten deutschen Sprachdenkmälern im VIII.Jahrhundert bis zur Gegenwart. Das Wörterbuch zeigt die Herkunft der Wörter, ihre semantische Entwicklung und ihren heutigen Gebrauch.

Dem Zweck der diachronischen Sprachbeschreibung dienen auch etymologische Wörterbücher. “Etymologisches Wörterbuch der deutschen Sprache”

von F.Kluge (20.aufl., 1967) gibt über die Herkunft der Wörter Auskunft, geht dem frühesten Auftreten eines Wortes nach, führt Form und Bedeutung des Wortes in der jeweiligen Periode der Sprachgeschichte an, bringt seine Parallelen in verwandten Sprachen oder zeigt, aus welcher Sprache das Wort entlehnt ist. Es enthält 10000 Stichwörter und ist in erster Linie für Sprachwissenschaftler bestimmt.

Als eines der besten diachronischen Wörterbücher gilt das “Deutsche Wörterbuch” von H.Paul (1.Aufl., 1896; 7.Aufl.,1960). Das Wörterbuch enthält rund 15000 schriftsprachliche Wörter, Termini, Dialektismen. Man kann das Werk von H.Paul als erklärendes Wörterbuch (толковый-изошли) mit historischen und etymologischen Angaben bezeichnen, das eine Mittelstellung zwischen dem Wörterbuch von Kluge dem Grimmschen Wörterbuch einnimmt.

Ein synchrones Wörterbuch beschreibt den Wortschatz auf einer bestimmten Entwicklungsstufe des Sprachgeschehens. Dabei läßt sich die historische Betrachtungsweise nicht völlig aufhalten. Ein Beispiel für synchronische Sprachbeschreibung ist das WDG. Eine Verbindung von synchronischer und diachronischer Darstellung sind die Wörterbücher einer bestimmten Sprachperiode (z.B Althochdeutsches Handwörterbuch, 1872-1878).

Die dritte Gruppe der Wörterbücher berücksichtigt verschiedene Aspekte und Ebenen des Sprachsystems. Die lautliche Seite der Wörter wird im Aussprachewörterbuch (z.B Th.Siebs.Deutsche Hochsprache, Bühnenaussprache, 18.Aufl. 1961;) und im orthografischen Wörterbuch (der Große Duden. Wörterbuch der deutschen Rechtschreibung) widergespiegelt.

Ein spezielles grammatisches Wörterbuch hat sich Sondertyp noch nicht herausgebildet. Im XVIII. Und XIX. Jh. wurde der Ausdruck “grammatisches Wörterbuch” oft auch für allgemeine Wörterbücher verwendet, in denen grammatische oder stilistische Hinweise gegeben wurden (W.Zaunmüller.

Bibliographisches Handwörterbuch der Sprachwörterbuch. Ein internationales Verzeichnis von 5600 Wörterbüchern der Jahre 1460-1958 für mehr als 500 Sprachen und Dialekte, 1958 .

Die grammatische Form, vor allem die Flexion der Wörter, wird im orthographischen und im Bedeutungswörterbuch mitbehandelt. Die syntaktische Verwendung der Wörter (ihre Rektion, Valenz, Distribution) wird in größeren Bedeutungs- und Spezialwörterbüchern gezeigt (z.B. in den von E.Mater herausgegeben Verzeichnissen "Deutsche Verben", 1966-1969; G.Helbig, W.Schenkel. Wörterbuch zur Valenz und Distribution deutscher Verben, 1975; K.E.Sommerfeld, H.Schreiber. Wörterbuch zur Valenz und Distribution deutscher Adjektive (1977)//...deutscher Substantive (1978)).

Die Fragen der Wortbildung werden teilweise im rückläufiges Wörterbuch beantwortet (z.B. E.Maler. Rückläufiges Wörterbuch der deutschen Gegenwartssprache, 1970). Das ist ein Wörterbuch, in dem die alphabetische Folge der Wörter nicht von den Anfangs-, sondern von den Endbuchstaben ausgeht. Auf die Wortbildung nehmen auch Bedeutung Wörterbücher Rücksicht.

Im WDG sind unter jedem Stichwort Zusammensetzungen und Ableitungen aufgeführt, in denen das Stichwort das zweite Glied ist. Ein spezielles Wortbildungswörterbuch ist unter Leitung von Prof. M.D.Stepanowa erarbeitet worden (Ремцко-русский слово образовательных элементов. Под редю проф. М.Д.Степановой М., 1979).

Viele Wörterbücher beschäftigen sich mit der inhaltlichen Seite der Wörter. Der verbreitetste Typ ist das Bedeutungswörterbuch, das von der formalen Seite der Sprache ausgeht und zeigt, auf welche Begriffe sich ein Wort bezieht, d.h. welche Bedeutung(en) es hat. Nach Klassifikation III ist es ein semasiologisches Wörterbuch. Eine vielumstrittene Frage solcher Wörterbücher ist eine konsequente Abgrenzung von Polysemie und Homonymie (В.И.Абаеву О подаче омонимов в словаре.: -ВЯ 1957.3).

Sonder des Bedeutungswörterbuch sind:

a) das Synonym(en)-Wörterbuch Der Große Duden, Sinn- und sachverwandte Wörter und Wendungen, Wörterbuch der treffenden Ausdrücke. Mannheim, 1972; Synonym-wörterbuch, 1972.

b) das phraseologische Wörterbuch;

c) das Fremdwörterbuch, in dem nur als fremd empfundene Wörter aufgenommen sind (z.B. fremdwörterbuch, 9.Aufl., 1965; Großes Fremdwörterbuch, 1977).

Dem Bedeutungswörterbuch sieht das viel seltenere Bezeichnungswörterbuch gegenüber (F.Dornseiff. Der deutsche Wortschatz nach Sachgruppen. 6.Aufl., 1965; H.Eggers. deutscher Wortschatz. 13.Aufl., 1967). Während das Bedeutungswörterbuch angibt, welche Bedeutungen z.B das Verb gehen hat, beantwortet das onomasiologische (ideographische, ideologische) Wörterbuch die Frage, welche Wörter den Begriff, die Idee der Fortbewegung wiedergeben. Unter dem Stichwort gehen findet man Wörter wie schreiten, marschieren, wandern, schlendern, waten, schleichen, taumeln u.a. Im Gegensatz zum alphabetischen Bedeutungswörterbuch hat das Bezeichnungswörterbuch gewöhnlich eine sachbezogene Anordnung. Die Abschnitte wie Tier, Mensch, Kleidung, Wohnung sind durch Unterabschnitte weiter aufgefächert. Ein Sondertyp des Bezeichnungswörterbuchs ist das Bildwörterbuch. Das "Bildwörterbuch. Deutsch und Rußisch" erfaßt nicht nur durch Zeichnungen dargestellte Gegenstände, sondern es bringt auch Ergänzungslisten mit nicht abbildbarem Wortgut.

Die "Kleine Enzyklopädie" behandelt auch weitere Typen von Wortbüchern. So werden normative und deskriptive Wörterbücher gegenübergestellt. Das normative Wörterbuch verzeichnet die gesetzlich festgelegten Sprachregelungen, vor allem für die Rechtsschreibung (und für die Bühnensprache). Das deskriptive Wörterbuch legt nicht fest, wie die Sprache sein soll, sondern beschreibt, wie sie ist. Zu diesem Typ gehört z.B. H.Küppers "Wörterbuch der deutschen Umgangssprache".

Das statistische Wörterbuch gibt an, wie oft ein einm Text oder in einer Gruppe von texten vorkommt. Das erste Nachschlagewerk dieses Typs ist das “Häufigkeitwörterbuch der deutschen Sprache” (1898) von F.W.Kaeding.

Darhaqiqat, G’arb tillari amaliy leksikografiyasi snngi asrda yangi pog’onaga ko’tarildi. Bu o’rinda ingliz tilining Oxford, Webster, fransuz tilining Larus olmon tilining Duden, Langenscheidt, Rossiya nashriyotlarining sermaxsul va sifatli lug’atlarini eslatib o’tish kifoya. Bunda nazariy jihatdan asoslangan, amaliy tomondan ma’lum maqsadga yo’naltirilgan lug’atlar yaratish va chop etish izchil yo’lga qo’yilgan. Demak bizning nazarimizda ma’lum bir aniq maqsadga yo’naltirilmagan, olinayotgan- berilayotgan so’zlarning son vasifat jihatlari ilmiy asoslanmagan, faqat tuzuvchining “ta’bi” hamda iqtidori bilan chegaralanib qolayotgan lug’atlarni chop etish davri otdi

o’zbek leksikografiyasi o’zining uzoq tarixiga ega. Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’atit turk” asari umumturkiy leksikografiyaning namunasi bo’l sa, XIII-XIV asrlardan boshlab o’zbek leksikografiyasi undan oziqlangan holda mustaqil rivojlana boshladi. Tilshunoslik tarixida Mahmud Koshg’ariy salmoqli o’rin egallaydi. U tilning juda ko’p sohalari bo’yicha qalam tebratdi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning otasi, fonetist-fonolog, leksikolog, leksikograf, lingvograf, turkiy tillar sarf va nahv ilmining asoschisi sanaladi.

S.Mutalliboyev ta’kidlaganidek, Mahmud Koshg’ariy yaratgan “Devoni lug’otit turk” asari faqat o’sha davr uchungina katta voqea bo’lib qolmay, bugungi turkologiya fani uchun ham o’z qimmatini saqlab qolmoqda. U haqli ravishda turkologiya fanining asoschisi hisoblanadi.

Afsuski, ana shunday buyuk tilshunosning ilmiy merosidan jahon ilmiy jamoatchiligi asrimiz boshlariga qadar bexabar bo’lib keldi, chunki bu davrgacha Mahmud Koshg’ariyning hayoti va uning “Devoni”i haqida ma’lumot yo’q edi. Arab tili fani shuhratini yoyishga sabab bo’lgan bibliografik va biografik asarlarda ham, Xo’ja Xalfa lug’tidan boshqa birortasida bu olim haqida ma’lumot berilmaydi. Faqat 1914-tilda Turkiyaning Diyorbakir shahrida istiqomat qiluvchi Ali Amiriy tomonidan tasodif tufayli Mahmud Koshg’ariyning “Devoni lug’otit

turk” asari topilib, lingvistika tarixida mo’jiza ro’y berdi. Chunki bu asar tilshunoslikning juda ko’p sohalarini qamrab olgan qomusiy bir asar edi.

“Devoni lug’otit turk” asari hijriy 468-yili yozilgan (melodiy 1076-1077). Xoshimiylar sulolasidan, abbosiylar avlodidan bo’lgan Abulqosim binni Muhammad Muqtadoga armug’on qilingan. Asarning yozilish tarixi lug’atda shunday bayon qilingan “nok yili turklarning 12 yil nomlarining biridir. Bu kitobning yozilgan yili nok yili edi”. Lug’at yozilganda muallifning keksayib qolganini hisobga olsak, u XI asr boshlarida tug’ilgan deb hisoblash mumkin.

Mahmud Koshg’ariyning qayerda, qachon o’qigani haqida aniq ma’lumot yo’q. “Devoni lug’otit turk” asaridek qomusiy bir asarni yaratgan buyuk zot, so’zsiz o’z davrining yetuk olimlaridan edi. Xususan, tilshunoslikka katta havas bilan qaragan olim edi. Shuning uchun ham turkiy urug’ va qabilalar yashagan barcha yerlarni birma-bir kezib ularning tillaridagi o’xshash va farqli jihatlarini aniqlaylaydi. Mahmud Koshg’ariy “Devoni lug’atit turk” asaridan tashqari, turkiy tillar sintaksisiga doir “Javohirun nahv til lug’atit turk” (Turkiy tillarning nahv (sintaksis) javohirlari) asarini ham yozganligi haqida ma’lumot beradi.

Afsuski, bunday nodir asar bizgacha yetib kelmagan yoki haligacha topilmagan.

Mahmud Koshg’ariy o’sha davr an’anasiga ko’ra barcha asarlarning, jumladan, “Devoni lug’otit turk” ning bizgacha birgina qo’lyozmasi yetib kelgan. Qo’lyozma Istambulda saqlanadi. Uni ko’chiruvchi kotib Muhammad binni Abu Bakr Damashqiy ma’lumotiga ko’ra, Mahmud Koshg’ariyning o’z qo’li bilan yozilgan nusxadan ko’chirib olingan. Bu asar 1915-1917 yillarda 3 tomlik kitob holida Istambulda nashr etildi. Nemis sharqshunosi Brokkelman tomonidan 1929-yilda nemis tiliga tarjima qilinib, Leybsigda bosib chiqargan. Basim Atalay turk tiliga tarjima qilib, 1939-yilda Anqarada chop etdi. Mashhur sharqshunos olim Solih Mutalliboyev tomonidan o’zbek tiliga tarjima qilinib, 1960-1963 yillarda Toshkentda nashr qilindi.

O’zbek tilshunosligi leksikografiya sohasida juda katta tarixga ega ekanligidan xabardormiz. Lekin o’rta asr leksikografiyasida ko’proq e’tabor izohli

va tarjima lug'atlarga qaratilgan. XX asrning 40-yillaridan boshlab leksikografiya yo'nalishlari ham kengaydi. Lug'atning yangi-yangi turlari: ensiklopedik, imlo, orfoepik, morfem, chastotali, ters, frazeologik, dialektal, etimologik lug'atlar paydo bo'ldi.

Ilgari yaratilgan izohli lug'atlar ko'proq ayrim mualliflarning, xususan, A.Y.Yunusovning "Fiziologik terminlarning izohli lug'ati" (1984), A.Hojiyevning "o'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" (1974), Sh.Rahmatullayevning "o'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" (1978), "o'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati" (1984). Shu muallifning R.Shukur bilan hamkorlikda tayyorlagan "o'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati", X.Y.Bekmuhammedovning "Tarix terminlarining izohli lug'ati" kabi lug'atlar xususiy izohli lug'atlar sanaladi. O'zbek tilini barcha leksemalarini izohlashga bag'ishlangan lug'at esa umumiy izohli lug'at hisoblanadi. 60000 so'zni o'z ichiga olgan 2 jildli "o'zbek tilining izohli lug'ati" (1981) o'zbek leksikografiyasi tarixida o'zbek tilining barcha leksemalarini izohlashga qaratilgan ilk izohli lug'atdir. Bu lug'at katta mehnat evaziga dunyoga kelgan va leksemalar ma'nolarini yoritishda ko'plab illyustrativ materiallarga asoslangan, puxta leksikografik tamoyilga tayangan lug'at bo'lish bilan birga, sovet voqeligi va sovet til siyosatini o'zida to'la aks ettirgan lug'at hamdir. Shuning uchun unda aks etgan so'zlarning 40% ga yaqini rus tilidan kirib kelgan leksemalardir. Ana shuni e'tiborga olgan holda, istiqloq qo'lga kiritilishi bilanoq, "o'zbek tilining izohli lug'ati"ni yaratishga kirishdilar. 16000 so'zni o'z ichiga olgan "o'zbek tilining faol so'zlarining izohli lug'ati"ning nashr etilishi (2000) ham bu yo'lda qilinga harakatlarning debochasi bo'ldi. 70-yillarda o'zbek ensiklopediyasining yaratilishi o'zbek leksikografiyasining ulkan yutug'i bo'ldi. Bu lug'at o'zbek leksikografiyasi tarixida ilk qomusiy lug'at bo'lganligi bilan ahamiyatlidir. Shunday bo'l ishiga qaramasdan unday ham sovet voqeligi, sho'rolar siyosati aks etganligi uchun tariximiz, milliy an'analarimiz, ma'naviy marosimiz buzib ko'rsatilgan. Shuning uchun mustaqillik davrida milliy ensiklopediyani yaratish eng muhim vazifa qilib qo'yildi. Uning I jildining nashr etilishi ma'naviy hayotimizda katta voqelik bo'ldi. Ayniqsa, turkiych-forscha,

turkiycha-arabcha tarjima lug'atlar tuzishga e'tibor kuchaydi. Bu esa, arab va ajam mamlakatlarida turkiy tilga qiziqishning ortib borganligi natijasidir. Ana shuning natijasida "Tarjumoni turki va ajami va mug'uli va forsi" (XIII-XIV asrlar), "Kitobi at-tuxfa az-zaki-ya fi-l lug'at-it turkiya" (Turkiy-arab lug'ati-XIV asr), Abu Xayyonning "Kitobi al-idrok li-lisan al-atsak" (Turkiy-arab lug'ati-XV asr). Ushbu lug'at faqat so'zlar va ularning ma'nolarini tavsiflab qolmasdan, turkiy xalqlar tarixi, urf-odatlar, geografik joylashuvi kabi keng ma'lumotlar manbai hisoblanadi. Shu bilan birga u dastlabki ikki tilli (turkiycha-arabcha) lug'atlardandir. Mahmud Zamaxshariy o'zining "Asos ul-balog'a", "Muqaddimat ul-adab" asarlari bilan ham amaliy, ham nazariy lug'atshunoslikning rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Alisher Navoiy ijodiga bo'lgan katta qiziqish 15-asrdan keyingi davrda bir qancha lug'atlarning yaratilishiga sabab bo'ldi: "Abushqa" (16-asr, Turkiya) izohli lug'ati, Toli Imoni Hiraviyning "Badoye ul-lug'at", Muhammad Rizo Xoksoning "Muntaxab ul-lug'ot", Mirzo Mahdiyxonning "Sangloh", shuningdek, Muhammad Yoqub Chingiyning "Kelurnoma", "Sulaymon Buxoriyning "Lug'ati chig'atoiy va turki usmoniy" ("Chig'atoycha-turkcha lug'at"), Ishoqxon Ibratning "Lug'ati sitta as-sina" ("Olti tilli lug'at") kabi lug'atlarini ko'rsatish mumkin.

Ayniqsa, adabiyot osmonida Alisher Navoiydek yorug' yulduz paydo bo'lgach, uning asarlariga forsiyzabon adiblarning qiziqishi ortdi. Buning natijasida bir qator turkcha-forscha tarjima lug'atlari dunyoga keldi. Jumladan, Toli Imoniyning "Badoyi al-lug'at", "Sangloh", "Lug'ati atrakiya", "Xulosa-yi Abbosa" ("Sangloh"ning qisqa varianti), Muhammad Rizo Xansarning "Muntahab al-lug'at" asari, shuningdek, eski o'zbekcha-turkcha "Abushqa" va boshqalar.

Alisher Navoiy asarlari yuzasidan bundan uzoq va juda boy leksikografik an'ananing mavjud bo'lishi juda nodir hodisadir. Hatto rang-barang lug'atlarga boy bo'lgan arab va fors leksikografiyasi tarixida ham ma'lum adib yoki bir necha adiblar asarlari asosida tuzilgan bunday lug'atlar mavjud emas. Afsuski ana shu lug'atlar bir necha asrlar davomida navoiyxonlarning kundalik hayotida dasturiy bo'lib kelgan bo'lsa ham, lekin leksikografiya nuqtai nazaridan

maxsus o'rganish obyekti bo'lmadi. Shuning uchun ham S.K.Borovkov o'zbek tilshunosligidagi nodir lug'atlarni leksikografik nuqtai nazardan shu kunga qadar jiddiy o'rganilmaganini afsus-nadomat bilan qayd etadi.

o'zbek leksikografiyasiga doir bunday lug'atlar dastlab Yevropa olimlarining diqqatini tortdi. Ular yuqoridagi lug'atlarning ko'pini nashr etdilar. Xususan, "Abushqa" lug'ati G.Vamberi (1862), V.V.Velyaminov- Zernov (1869 yili), "Badoyi al-lug'at" A.K.Vorovkov (1961) tomonidan nashr etildi. Buning natijasida jahon olimlarining diqqati o'zbek leksikografiyasi tarixiga jalb etildi.

Asrimizning 60-yillaridan boshlab o'zbek olimlari yuqoridagi lug'atlarning leksikografik xususiyatini o'rganishga kirishdilar.

Shuni ta'kidlash kerakki, Alisher Navoiy asarlari asosida tuzilgan lug'atlarning hech qaysisi shoir asarlarida nechta so'z qo'llanganini va uni sharhlashni maqsad qilib qo'ymaydi. B.Hasanovning ta'kidlashicha, Alisher Navoiy asarlari asosida tuzilgan lug'atlarda leksikograflar ko'proq eski o'zbek tiliga xos bo'lgan so'zlarni tanlab olishga harakat qilgan. "Sangloh" va "Lug'ati atrakiya"ga bir muncha arabcha va forscha so'zlar ham kiritilgan.

Eski o'zbek tili so'zlari deb olingan leksemalar ichida ham o'zbek tiliga o'zlashib, "o'z so'zi"ga aylanib ketgan bir qator so'zlar uchraydi. J.Klosning hisobiga ko'ra, "Sangloh" lug'atida mo'g'ul, fors, arab va boshqa tillardan o'zlashgan 970ga yaqin leksik birliklar mavjud.

Alisher Navoiy asarlari asosidagi lug'atlarda arab alifbosi asosida har qaysi harfga bir nechta so'z to'plam lari va muayyan harf ostida to'plangan so'zlarni "kitab" "Abushqa"da "ba:b" deyilgan.

Har qaysi kitob so'zning birinchi bo'g'inidagi unlinging xususiyatiga muvofiq, uch bobga bo'lingan. Bunda unlining maxsus harf bilan ifodalaninsh-ifodalanmasligi ahamiyatsiz bo'lgan. Ular quyidagi ismlar bilan yuritilgan.

I bob. Ba:b al-maftu:xa:t (a,a unlilari mavjud bo'lgan so'zlar bobi), Masalan, tamshimoq, talan, max va boshqalar.

II bob. Ba:b al-mazmu:ma:t (o,o, u,u unlilari ishtirok etgan so'zlar bobi), Masalan, chupchuq, jong, tolga, quvanmadum va boshqalar.

III bob. Ba:b al-maqsu:rat (i, o', e unlilari qatnashgan so'zlar bobi), Masalan, ko'gnak, bel, biya va boshqalar.

“Sangloh”, “Badoyi al-lug'at”larda lug'at maqolasida fe'llar –maq, -mak shakllatida, otlar esa bosh kelishik, birlik shakllarida, beriladi. So'zlarni alifavit tarzida joylashtirish uchun so'zdagi barcha harflar e'tiborga olinadi. Demak, ichki alfavitga ham e'tibor beriladi. Fe'l o'z ot o'zaklaridan hosil bo'lgan turli shakllar shu so'z ostida birlashtiriladi. Masalan, Ash-: ashmak, ashurmak, ashamak, ashatmak, ashukmak, ashukturmak, ashlamak, ashlanmak, ashundurmak.

Shunday qilib, Alisher Navoiy asarlari asosida tuzilgan lug'atlar ichida “Badoyi al-lug'at” va “Sangloh” lug'at tuzish tamoyilining ancha mukammalligi bilan ajralib turadi. Rus tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmida A.Tixonov tomonidan ishlab chiqilgan so'zlarni uyalarga birlashtirish asosida lug'at tuzish tamoyillari o'zbek leksikograflari tomonidan XV asrgayoq ishlangan va bu tamoyillar asosida lug'atlar tuzilgan.

Navoiy asarlari yuzasidan yaratilgan lug'atlar ichida “Sangloh” lug'at maqolalarini joylashtirishda izchilva puxta tamoyilga bo'ysunadi. B.Hasanovning kuzatishiga ko'ra, “Sangloh”da lug'at maqolalariquyidagi sxema asosida joylashtiriladi:

1. Sarlavhaga chiqarilgan so'z.
2. Sarlavhaga chiqarilgan so'zning fonetik va orfografik izohi va undan hosil qilingan shakllar.
3. Sarlavhaga chiqarilgan so'z va undan hosil qilingan shakllarning Grammatik tavsifi.
4. So'zning etimologiyasi.
5. Sarlavha so'z va undan hosil qilingan shakllarning semantik tahlili.
6. Sarlavha so'z va undan hosil qilingan shakllar semantik tavsifini tasdiqlovchi materiallar.
7. Sarlavha so'z va undan hosil qilingan shakllar-ma'nolarining rumiy (turk), arab, fors va boshqa tillarda ifodalanishi.
8. O'zidan oldingi mualliflar fikrlariga munosabati.

9. Ilovalar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan lug'atlarda ko'proq turkiy, eski o'zbek tiliga oid so'zlar sarlavhaga chiqarilgan. Shu bilan birga o'sha davr uchun o'zlashib ketgan ayrim arabcha va forsha so'zlar ham o'rin olgan. Mo'g'ulcha so'zlar ham anchagina uchraydi. "Sangloh" lug'atida muallifning o'zi tomonidan mo'g'ulcha deb belgilangan so'zlar yuztadan oshadi.

Grammatik nuqtai nazardan sarlavha so'zlar deyarli barcha so'z turkumlarini o'z ichiga oladi. "Sangloh" lug'atida fe'llar so'z turkumlariga nisbatan ko'proq sarlavha so'zga chiqarilgan.

So'zni to'g'ri o'qish uchun sarlavhaga chiqarilgan so'zning fonetik tavsifi katta ahamiyatga ega. Arab leksikografik an'anasiga Qur'on so'zlarini to'g'ri talaffuz qilishga alohida e'tibor berilganligi uchun puxta fonetik tavsiflash tizimi mavjud bo'lgan. O'zbek leksikograflari ham arab leksikograflarining bu an'asidan ijodiy foydalanilgan.

Ma'lumki, arab grafikasida o'zbek tili unlilarining to'la va to'g'ri ifodalash qiyin. Chunki bir harf bir necha tovush uchun qo'llaniladi. Shuning uchun bu harf qaysi tovushni ifodalashi, qanday o'qilishi kerakligini tushuntirish zaruriyati tug'iladi. Ana shu zaruriyat tufayli fonetik, tavsif va bu so'zni to'g'ri yozish uchun orfografik tavsif beriladi.

Xususan, sarlavha so'zdan so'ng bu so'zni to'g'ri o'qish uchun bi-fath, bi-zamm va bi-kasr singari izohlar beriladi. Jumladan, bir so'zni qo'riqchi qiroqchi, quruqchi emas, balki qaroqchi deb o'qish faqat keying bi-fath fonetik izohi orqali amalga oshadi.

O'zbek leksikograflari sarlavha so'ziga fonetik izoh bergandan so'ng grammatik izoh ham berganlar. Ayniqsa, grammatik izoh "Sangloh" lug'atida izchil aks etadi. Masalan, sarlavha so'z fe'lining noaniq shakli bo'l sa, infinitivdan so'ng shu so'zning turli shakllari ham keltiriladi. Natijada shu so'zning o'zgarish paradigmasi to'la gavdalanadi. Shuningdek, sarlavha so'z ot bo'l sa, shu otning barcha shakllari ham shu sarlavha so'zdan so'ng keltiriladi. Shunday qilib, so'zning grammatik uyasi, paradigmasi vujudga keladi.

Grammatik izohdan so'ng etimologik izoh o'rin oladi. Masalan, "Badoyi al- lug'at"da adash so'zining etimologiyasi haqida gapirib, aslida addash bo'lgani, keyinchalik bir d harfi tushib qolganini ta'kidlatdi. Shuningdek, ma'noyi istiora ham ajratiladiki, bu ham aslida ma'noyi majozining bir ko'rin ishidir.

Navoiy asarlarida deyarli barcha so'zlar ko'p ma'nolidir. Shuning uchun ham so'z ma'nosini izohlashda leksikograflar doimo polisemitizmga duch kelganlar. Natijada o'zbek lug'atchiligi tarixida so'z ma'nosini izohlash o'zining izchil bir tizimiga ega bo'l da. Bu davrda yaratilgan barcha lug'atlarda so'z ma'nosini izohlash "umumiylikdan xususiylikka" tamoyiliga bo'ysungan holda olib borildi: oldin umumiy, to'g'ri ma'no ko'rsatiladi. So'ng esa so'zning ko'chma ma'nolari izohlanadi.

O'rta asr o'zbek leksikografiyasidagi so'z ma'nosini sharhlash tajribasiga nazar tashlar ekanmiz, hayratga tushmay ilojimiz yo'q. Chunki XIX asr oxirida yevropa tilshunosligida so'z ma'nosining komponent tahlili deb yuritiluvchi tahlil usuli paydo va bu usul dunyo tilshunosligida katta obro'-e'tibor qozondi. Komponent tahlil usulining paydo bo'l ishi XIX asrda turli fanlarda system-struktur metodning yetakchi metodga aylanishi natijasida maydonga keldi, deyiladi. Shuningdek , tilshunoslikda komponent tahlil usulining shakllanishiga buyuk rus tilshunosi A.A.Potebnyaning ham qo'shgan hissasi haqida fikr yuritiladi. A.A.Potebnya o'zining "Из записок по русской грамматике" nomli mashhur asarida so'z ma'nolarini ikki guruhga bo'ladi:

- 1.yaqin ma'no (ближайшее значение);
2. keyingi ma'nolar (дальнейшее значение);

Yaqin ma'no har qanday so'zning asosiy, bosh ma'nosi, keying ma'nolar esa ko'chma ma'nolaridir. Yaqin ma'no har qanday leksemaning nutqqa kirgunga qadar vokabulada anglatgan ma'nosi. Keyingi ma'nolar esa so'zning majoziy ma'noda qo'llanilishi natijasida nutqda namoyon bo'ladi.

So'z ma'nosining bunday ikki guruhga bo'linishi , ularning o'ziga xos xususiyatlari A.A.Potebnyaga qadar va tilshunoslikda strukturalizm paydo

bo'lgandan bir necha yuz yillar oldin o'zbek tilshunosligida o'zbek leksikograflari tomonidan bayon qilingan.

Tilshunoslik tarixida ideografik lug'atlar yaratilishi alohida qimmatga ega. Bunday lug'atlarning maqsadi borliq elementlari haqidagi ma'lum tushuncha qanday moddiy vositalar yordami bilan ifodalanishini ochib berishdan iborat bo'ladi. Demak, ideografik lug'atlarda "borliq+borliqning ongda aks etishi+nom" tamoyiliga bo'ysuniladi.

V.V.Morkovkin, Y.N.Karaulovlar fikriga ko'ra "tushunchadan" "so'z"ga, "konsept"dan "belgi"ga o'tiladi.

Shu kunga qadar ideografik lug'at tuzish yevropada boshlangan va bunday lug'atlar Roje, Kasares, Rober, Dornzayf nomlari bilan bog'liq deb hisoblab kelindi. Rus tilshunosligida Y.N.Karaulov ideografik lug'at tuzish tamoyillari bo'yicha maxsus tadqiqot olib bordi. Lekin bu muallif ham ideografik lug'at tuzish yevropadan boshlanganini e'tirof etadi.

Sharq leksikografiyasi, Xususan, arab va o'zbek leksikografiyasi tarixiga e'tibor bersak, bunday lug'atlar Sharqda ancha uzoq tarixga egaligi ma'lum bo'ladi. Xususan, o'zbek tilshunosligi tarixida Zahiriddin Muhammad Boburning "Voqeanoma"sida ideografik lug'atning ayrim belgisi uchrasa, Muhammad Changiy "Kelurnoma" si bunday lug'atning ajoyib namunasi sanaladi.

Ma'lumki, Hindistonda boburiylar davrida badiiy adabiyotda turkiy tilning roli katta bo'ldi.

Boburiylar ona tilini saqlab qolishga intildilar. Bu tilda o'zlarining go'zal badiiy asarlarini yaratdilar. Turkiy tilni o'rganishga katta ehtiyoj turli lug'atlarning yaratilishiga sabab bo'ldi. Ana shunday ehtiyoj asosida Abu Muzaffar Muhiddin Avrangzeb (1658-1707 yillar) saroyida hizmat qilgan Muhammad Yoqub Changniy "Kelurnoma" asarini yaratdi.

Bu asar ikki xil lug'atning ajoyib namunasi. Lug'at 15 bobdan va 332 fasldan iborat. Ulardan 14 bobi arab alfaviti asosida joylashtirilgan 400 dan ortiq fe'llarni izohlashga bag'ishlanadi.

Sarlavha soʻz sifatida feʻlning infinitivi shakli beriladi. Undan soʻng bu feʻldan hosil boʻlgan boshqa shakllar keltiriladi va har qaysisining forsha tarjimasi koʻrsatiladi. Masalan, birinchi bobning uchinchi fasli uyqulamoq soʻziga bagʻishlanadi va u quyidagicha sharhlanadi uyquladi “xabid”, uyqulaptur “xabida ast”, uyqulabdi “xobida bud”, uyqulaydur “mixobad”, uyqulamadi “naxobid”, uyqulamaptur “naxobida ast”, uyqulamas “naxaxad xabid”, uyqulamabdi “naxabida bud”, uyqulamaydur “namixabad, uyqula baxob”, uyqulama “maxob”, uyqularbiz “mixabimma”, uyqulamasbiz “namixobimma”. Shunday qilib, oʻn toʻrt bobda 400 dan ortiq feʻlning yuqoridagi kabi turli xil shakllar paradigmasi beriladi. Natijada uya lugʻatning namunasi vujudga keladi.

Oxirgi 15-bob esa ismlar va yordamchilarni izohlashga qaratilgan. Bu bob oldingi 14 bobdan tamomila farq qiladi. Chunki oxirgi bobda ismlar mavzu (tema) asosida joylashtiriladi. 9 mavzuga boʻlinadi:

- 1) osmon va u bilan bogʻliq boʻlgan tushunchalar;
- 2) yer va ubilan bogʻliq tushunchalar; ot va egarlanadigan hayvonlar;
- 3) burgutlar va yovvoyi qushlar;
- 4) odam jismi aʼzolari nomlari
- 5) qarindoshlik nomlari;
- 6) qurol-yarogʻ nomlari;
- 7) sanoq nomlari;
- 8) olmosh, ravish, bogʻlovchi va qoʻshimchalar.

Bu bob 1300 soʻz va 6000 dan ortiq soʻz shakllarini oʻz ichiga oladi.

Masalan, 15-bobning birinchi faslida koʻk, quyosh-kunash kun, ay, aydun, yulduz, yetdigen, hulkar, agʻul, yaruq, yaruqluq, yashoʻn-chakoʻn-oʻldurum, bulut, yagʻush-yagʻmur, chibar “mayda yomgʻir”, qar, muz, chapkun “sovuq shamol”, yuz “qirov” yel, koʻrav, suv, oʻt, chogʻash (quyosh issigʻi), yaloʻn (uchqun), chang, ayas, shudring, tong, kun, kunduz, kecha, erta, kech, axsham, qorongʻu, alav, kush, yaz, savuq, oʻsug kabi soʻzlarning forsha-tojikcha tarjimasi beriladi.

Bundan koʻrinib turibdiki, lugʻatning oxirgi bobi mavzuiy-ideografik lugʻatning ilk naʼmunasidir.

Demak, “Kelurnoma” ikki tipdagi lug’atni-uya va ideografik lug’atni o’z ichiga oladi.

O’zbek tilshunosligi tarixida grammatika masalalarini o’z ichiga olgan lug’atlardan biri Mirzo Mehdixonning “Sangloh” lug’atidir. Bu lug’at “Maboni ul-lug’at” (“Til asoslari”) nomli grammatik ocherkni o’z ichiga oladi. Ana shu ocherk asosida Mirzo Mehdixonning lingvistik qarashlari xaqida fikr yuritish mumkin.

Mirzo Mehdixonning to’liq ismi Nizom id-din Muhammad Hodi al-Husayni as-Safaviy, otasining ismi esa Mirza Muhammad Nosiriydir. U asli astrobodlik bo’l ib, Eron shohi Nodirshoh saroyida muarrix va xattot bo’l ib ishlagan. Mehdixon “Sangloh” lug’atini milodiy 1760 yilda yozib tugallagan (1172-1173).

Bu lug’atning “Maboni ul-lug’at” nomli grammatikaga bag’ishlangan qismi Muqaddima, Tarsifdan (grammatika) iborat.

Tarsif qismi olti mabna (qism)ni o’z ichiga oladi. Muqaddima qismida asarning yozilish sabablari va Alisher Navoiyning bu asar uchun manba bo’lib xizmat qilgan 12 nazmiy, 9 nasriy asarlarini nomi qayd etilgan.

Mehdixon bu qismda turkiy tilning fors tilidan ham arab tilidan ham farq qiladigan o’ziga xos grammatika qonuniyat lari mavjudligini ta’kidlaydi.

Tarsif qismida arab tilida fe’llarning asosi masdar-infinitiv ekanligi, o’zbek tilida esa II shaxs, birlik, buyruq maylining shakli ekanligi bayon qilinadi. Fe’ning barcha shakllari shu asosdan hosil bo’l ishini aytadi. Shundan so’ngi fe’ning turli shakllari haqida fikr yuritiladi.

Birinchi mabna o’n bobni o’z ichiga oladi. Birinchi bobda masdar va uning nisbat shakllari haqida ma’lumot beriladi.

Ikkinchi bobda esa fe’li moziy (o’tgan zamon) shakllariga töxtaladi. Fe’li moziy shakllariga –di (-ti), ravishdoshning –n, -ban, sifatdoshning –mish, -gan, (-g’an, -kan, -qan) shakllari hamda fe’ning –maydur shakli kiritiladi.

Uchinchi bobda fe’li muzori (hozirgi-kelasi zamon) shakllari tavsiflanadi. Bunday shakllar qatoriga –gay (-g’ay, -kay, -qay), -sun, -dik, -a va –r shakllari kiritiladi.

To'rtinchi bobda ismi foillar (harakat qiluvchi shaxslar nomlari) o'rganiladi. Bunday fe'llar qatoriga –guchi, (-g'uchi, -kuchi, -quchi), (ag'an), -r shakllari hamda kasb nomlari hosil qiluvchi –chi, -gun (kun, -qun), -chak shakllari kiritiladi.

Beshinchi bobda o'tgan zamon sifatdoshi (-mish, -ling -lik) –lug, -gun (g'un) kabi, oltinchi bobda fe'li amr atamasi bilan buyruq mayli shakllari, yettinchi bobda fe'li amrning bo'l ishsizlik shakllari, sakkizinchi hol (ravish va ravishdosh) shakllari, o'ninchi bobda affikslarning o'zakka qo'shilish usullari bayon qilinadi.

Ikkinchi mabnada fe'l shakllari hosil qiluvchi affikslarning fonetik variantlari va ularning qo'llanish xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Uchinchi mabna olmoshlarni o'rganishga bag'ishlanadi. Olmoshlar ismi ishora (ko'rsatish olmoshlari), kishilik olmoshalri va –men, -sen, -biz, -siz kabi bog'lamalar kiritiladi, zamoiri muttasila (bunga egalik qo'chimchalari kiritiladi) kabi turlarga bo'l inadi.

To'rtinchi mabnada harf atamasi ostida affikslar ro'yxati va ularning tavsifi beriladi.

Beshinchi mabna esa grammatikalashayotgan olmoq, tushmoq, bilmak, kirishmak yzmaq, ko'rmak kabi ko'makchi fe'llar tavsifiga bag'ishlanadi.

Oltinchi mabnada eski o'zbek orfografiyasi tamoyillari va ayrim so'zlarning imlosi bayon qilinadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Mirzo Mehdixonning “Moboni ul-lug'at” asari orqali XVII-XVIII asr o'zbek tilshunosligidagi grammatik tushunchalar haqida tasavvurga ega bo'lishi mumkin.

19-asr.ning oxiri va 20-asrning 1-choragida turli xil sabab va ehtiyojlar, davr taqozosi bilan Turkistonda ikki tilli lug'atlar rivoj topdi, o'nlab ruscha- o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha lug'atlar, so'zlashgichlar tuzilib nashr etildi. VM.Nalivkin va M.Nalivkinalarning 1884—1912 yillar mobaynida bir necha marta nashr etilgan "Russko-sartovski i sartovsko-russkiy slovar" ("Ruscha-sartcha va sart-charuscha lug'at"), Ashurali Zohiriy tomonidan 1927 yilda tuzilib, nashr ettirilgan 2 jildli "Ruscha- o'zbekcha mukammal lug'at" keyingi davrlarda O'zbekistonda yaratilgan ikki tilli lug'atlar uchun asos bo'ldi. O'zbek tilshunosligi

leksikografiya sohasida juda katta tarixga ega ekanligidan xabardormiz. Lekin o'rta asr leksikografiyasida ko'proq e'tibor izohli va tarjima lug'atlarga qaratilgan. XX asrning 40-yillaridan boshlab leksikografiya yo'nalishlari ham kengaydi. Lug'atning yangi-yangi turlari: ensiklopedik, imlo, orfoepik, morfem, chastotali, ters, frazeologik, dialektal, etimologik lug'atlar paydo bo'ldi.

Ilgari yaratilgan izohli lug'atlar ko'proq ayrim mualliflarning, xususan, A.Y.Yunusovning "Fiziologik terminlarning izohli lug'ati" (1984), A.Hojiyevning "o'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" (1974), Sh.Rahmatullayevning "o'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" (1978), "o'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati" (1984). Shu muallifning R.Shukur bilan hamkorlikda tayyorlagan "o'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati", X.Y.Bekmuhammedovning "Tarix terminlarining izohli lug'ati" kabi lug'atlar xususiy izohli lug'atlar sanaladi. o'zbek tilini barcha leksemalarini izohlashga bag'ishlangan lug'at esa umumiy izohli lug'at hisoblanadi. 60000 so'zni o'z ichiga olgan 2jildli "o'zbek tilining izohli lug'ati" (1981) o'zbek leksikografiyasi tarixida o'zbek tilinig barcha leksemalarini izohlashga qaratilgan ilk izohli lug'atdir. Bu lug'at katta mehnat evaziga dunyoga kelgan va leksemalar ma'nolarini yoritishda ko'plab illyustrativ materiallarga asoslangan, puxta leksikografik tamoyilga tayangan lug'at bo'lish bilan birga, sovet voqeligi va sovet til siyosatini o'zida to'la aks ettirgan lug'at hamdir. Shuning uchun unda aks etgan so'zlarning 40% ga yaqini rus tilidan kirib kelgan leksemalardir. Ana shuni e'tiborga olgan holda, istiqlol qo'lga kiritilishi bilanoq, "o'zbek tilining izohli lug'ati"ni yaratishga kirishdilar. 16000 so'zni o'z ichiga olgan "o'zbek tilining faol so'zlarining izohli lug'ati"ning nashr etilishi (2000) ham bu yo'lda qilinga harakatlarning debochasi bo'ldi. 70-yillarda o'zbek ensiklopediyasining yaratilishi o'zbek leksikografiyasining ulkan yutug'i bo'ldi. Bu lug'at o'zbek leksikografiyasi tarixida ilk qomusiy lug'at bo'lganligi bilan ahamiyatlidir. Shunday bo'lishiga qaramasdan unday ham sovet voqeligi, sho'rolar siyosati aks etganligi uchun tariximiz, milliy an'analarimiz, ma'naviy marosimiz buzib ko'rsatilgan. Shuning uchun mustaqillik davrida milliy ensiklopediyani yaratish eng muhim vazifa qilib qo'yildi. Uning I jildining nashr

etilishi ma'naviy hayotimizda katta voqelik bo'l di. Hozirgi kungacha 10 ga yaqin xorijiy til bilan o'zbekchani qiyoslovchi ko'plab tarjima lug'atlari, fan sohalariga oid 100 dan ziyod bir, ikki va uch tilli terminologik lug'atlar yaratildi. o'zbek xalqi tarixida birinchi marta " o'zbek tilining izohli lug'ati" tuzilib, nashr etildi (1981). 20-asrda o'zbek lug'atchiligi rivojiga A.Zohiriy, A.Qodiriy, Ye.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, S.Ibrohimov, Olim Usmon, Z.Ma'rufov, Sh.T. Rahmatullayev, N.Mamatov, A.Hojiyev, T.Aliqulov va boshqalar munosib hissa qo'shdilar. Respublika mustaqilligi tufayli o'zbek leksikografiyasi oldiga yangi davr talablariga javob beradigan ensiklopedik va lingvistik lug'atlar yaratish vazifasi qo'yilgan va bu vazifa o'z o'rnini bilan amalga oshirilmoqda. Tilshunoslikning lug'atchilik nazariyasiga oid sohasi, lug'atshunoslik- lug'at turlari va ularni tuzishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Nazariy lug'atlar bir qancha muammolarni qamrab oladi: lug'atlarning umumiy tipologiyasini va yangi turdagi lug'atlarni ishlab chiqish; lug'at makrostrukturasini ishlab chiqish (so'zlarni tanlab olish, so'z va lug'at maqolalarini joylashtirish tartibi, omonimlarni belgilash, lug'at tarkibiga havola materiallarni kiritish); lug'at mikrostrukturasini, ya'ni har bir lug'at maqolasini ishlab chiqish (so'zga grammatik va fonetik izoh berish, so'z ma'nolarini ajratish va tasniflash, dalil sifatidagi illyustratsiyalar turlari, ta'riflash turlari, belgilar tizimi, so'z etimologiyasi haqidagi ma'lumotlar) va b. lug'atlar tilshunoslikning barcha bo'limlari, ayniqsa, leksikologiya bilan o'zaro bog'liq. Lug'atlar ham amaliy, ham nazariy soha sifatida leksikologiya, uslubshunoslik, fonetikaga hamda til tarixi, tilning grammatik qurilishi haqidagi ta'limotga suyangan holda ish ko'radi. Zamonaviy lug'atlar muayyan davr jamiyatidagi bilimlar majmuini aks ettiruvchi lug'atlarning muhim ijtimoiy vazifasini alohida qayd etadi. Lug'atshunoslik lug'atlar tipologiyasini ishlab chiqadi. Shu jihatdan bir tilli lug'atlar (izohli va b. lug'atlar), ikki tilli lug'atlar (tarjima lug'atlar), o'quv leksikografiyasi (til o'rganishga maxsuslashgan lug'atlar), ilmiy-texnik lug'atlar (terminologik lug'atlar) o'zaro farqlanadi.

1.3. Lug'at tuzishda so'z muammosi.

Leksikografiya deb leksikologiyaning lug'atlar tuzish nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanuvchi qismiga aytiladi. Umuman olganda esa hozirgi zamonda "leksikografiya" termini 4 xil ma'noda qo'llaniladi:

- 1) lug'atlar tuzish tamoyillarini o'rganuvchi fan, lug'at tuzish nazariyasi.
- 2) lug'at tuzish.
- 3) mazkur til lug'atlari to'plami.
- 4) mazkur davlatda tuzilgan lug'atlar to'plami.

So'zlar, predmetlar va hodisalarga izoh berilayotganligiga qarab til va ensiklopedik lug'atlar farqlanadi.

Olmon tilining til lug'atlarini turli belgilarga qarab klassifikatsiya qilish mumkin. Shunday qilib quyidagi lug'at turlarini ajratish mumkin:

1. tarixiy va zamonaviy
2. to'liq va to'liqsiz
3. umumiy va maxsus
4. bir tillik izohli va tarjimali ikki yoki ko'p tilli
5. ovozli (yoki alifboli) va g'oyaviy.

Leksikografiya an'analari ma'lum lug'atlarning ma'lum turlarini namoyon qiladi. Bu ma'noda o'quv leksikografiyasi o'z an'analari va o'z namunalariga ega. Hozirgi zamon o'quv minimum lug'atlari alohida o'rin tutadi va oquv jarayonida muhim rol o'ynaydi. Buni G.Meder so'zlarni bilmayturib chet tilini tushunish mumkin emas deb ta'kidlaydi. Leksik birliklarni tanlash, joylashtirish va tasvirlash lug'atlarda xech qanday amaliy ahamiyatga ega emas. U ilmiy asoslangan amaliyot hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, minimum-lug'atlarga tegishli bo'lgan masalalar yetarli darajada o'rganilmagan va alohida e'tiborni talab qiladi.

Minimum-lug'atlar chet tillarini o'rganish jarayonida keng qo'llaniladi. Har qanday o'quv lug'atlari kabi ular mustaqil o'quv qo'llanma hisoblanadi, o'zining leksik qismida darsliklar bilan kesishadi. Shuning uchun bu lug'atlarda o'qitish bosqichlari tartiblari hisobga olinadi.

Minimum-lug'atlar odatda elementar (1500 so'z) va asosiy leksika (3000 so'z) lug'atlariga bo'linadi, "katta" o'quv lug'atlari uchun baza hisoblanadi. Bir tildagi lug'at minimumlar (shu tilda so'zlashuvchilar uchun mo'ljallangan) ikki tildagi minimum lug'atlardan ancha farqlanadi. Bir tildagi lug'atlarda orfografiyaga urg'u beriladi, chunki shu tilda so'zlashuvchilarda aynan shu sohada savollar va ikkilanishlar bo'ladi. Ikki tildagi minimum lug'atlarda ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan tomonlarni o'z ichiga oladi.

O'quvchilar ona tiliga tayanmasdan turib elementar leksikani (1500 so'z) o'zlashtira olmaydi, shuning uchun chet tilidagi har bir so'z tarjima qilinadi, ba'zida esa izoh berishga, ma'nosini tushuntirishga to'g'ri keladi. Chet tilini o'rganishni boshlayotgan bolalar nafaqat so'zlarni yozishda, ma'nosini tushunishda, balki talaffuz qilishda qiyinchiliklarga duch kelgani uchun minimum-lug'atlarda o'qitish jarayonini yengillashtiradigan fonetik jarayonlar ko'rsatiladi.

Leksika tanlashda shunga e'tibor berish kerakki, leksik minimum tuzish o'quv jarayonidan ajralmagan bo'lishi kerak.

Umumiy va o'quv lug'atlarining tipologiyasi leksik semantikaning asosiy tushunchalari va kategoriyalariga tayanadi. Bular quyidagilardir:

- 1) leksikaning sistemali xarakteri;
- 2) so'zning leksik ma'nosi;
- 3) ma'noning semasiologik va onomasiologik jihatlari;
- 4) ma'noni paradigmatic va sintagmatic tasvirlash;
- 5) so'z ma'nosi, uning emotsional va ekspressiv-stilistik tasnifi;
- 6) asosiy kategoriyalar (toifalar): polisemiya (va omonimiya) va sinonimiya (antonimiya bilan).

Shundan kelib chiqib lug'atlar tipologiyasiga qarama-qarshiliklar mavjud: paradigmatic-sintagmatic, semasiologik-onomasiologik, bir tillik-ikki tillik, aralash- aralshmagan.

Bu asosiy belgilardan tashqari qo'shimcha belgilar taklif qilinadi: so'zlarning qo'llanilishi, ularning semantikasi, so'z tuzish strukturasi va hokazolar. Paradigmatic lug'atlarga sinonimlar, antonimlar, leksik-semantik guruhlar

lug'atlarini, sintagmatik lug'atlarga turli xil lug'atlar: umumiy va ma'lum yo'nalishdagi qo'llanmalar. Lekin lug'atning asosiy funksiyasi qo'llanma bo'lganligi tufayli akademik tipdagi lug'atlar o'quv leksikografiyasi uchun asosiy lug'at turi hisoblanadi.

Lug'atlar shuningdek ensiklopedik va filologik bo'ladi. Birinchisida predmetlar, hodisa va voqealar talqin qilinadi, ikkinchisida esa so'zlarning ma'nosi talqin qilinadi. Stepanova va Chernishovanning aytishlaricha, filologik lug'atlar ko'p tillik (aksariyat ikki tillik) va bir tillik bo'ladi. Ularning ikkalasi ham "словник"ning hajmiga qarab farqlanadi. "Словник" deganda barcha tayanch so'zlar majmuasi tushuniladi. Ko'p tomli lug'atlar va minimum-lug'atlar ichraydi.

Ikki tillik tarjima lug'atlarga kelsak, leksikografiya kamida 4ming yilga borib taqaladi. Bunday lug'atlar turli xil kasblar va mutaxassisliklar vakillari tomonidan keng foydalaniladi. Bu lug'atlarga birinchi navbatda oddiy umumiy lug'atlar kiradi. Ular bir tildagi so'zlar tarjimasini va ma'nosini boshqa til vositasida beradi. Ular "словник"ning hajmi (olingan so'zlar miqdori) bilan va ma'nolarini izohlash darajasi, so'zning qo'llanilishi, rasmi materiallarning miqdori bilan farqlanadi. Ikki tillik lug'at tuzuvchilarning maqsadi tildagi so'zlar ma'nosini tarjima qilinayotgan til so'zlari yordamida tushuntirishdir.

Shuningdek frazeologik lug'atlar, so'z birikmalari lug'atlari keng tarqalgan.

Terminologik lug'atlar odatda alfavitli va tarjimali bo'ladi. Bunday lug'atlar ilmiy, texnik yoki boshqa terminologiyalarga ega. Ma'lum sohadagi terminologik lug'atlar ma'lum mutaxassislik qiziqishlarini aks ettiruvchi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. O'qitishning boshlang'ich bosqichida keng foydalaniladigan minimum-lug'atlar o'quv leksikografiya turlariga kiradi.

Bunday lug'atlarga shu narsa xoski, ularda tematik yo'nalish aniq shakllangan, ulardan chet tilidagi matnlarni o'qishda samarali foydalanish mumkin. Shunday qilib, ta'kidlash lozimki har qanday lug'at qo'llanma vazifasini bajaradi.

Masalan, tematik lug'at so'zlarning mavzular bo'yicha guruhlaydi va so'zlar haqida boshqa hech qanday ma'lumat bermaydi.

O'quv leksikografiyasi, odatda, tarjima o'quv lug'atlarini o'z ichiga oladi. o'quv leksikografiyasida 3000 so'zgacha bo'lgan minimum-lug'atlar ajratiladi. Ular elementar leksika (1500 so'z) va asosiy leksika (3000 so'z) lug'atlariga bo'linadi. Ushbu lug'atlar katta o'quv lug'atlari (3000-30000 so'z) uchun baza hisoblandi. Minimum-lug'atlarda o'qitish etaplari hisobga olinadi. Har qanday o'quv lug'atlari kabi minimum0lug'atlar mustaqil o'quv qo'llan ma hisoblanadi, lekin leksik qismida ba'zida (qisman) darsliklar va o'quv qo'llanmalar bilan kesishadi. Sotsiolingvistik nuqtai nazardan qaraganda hozirgi davrda lug'atlar adabiy qo'llanmaningning o'ziga xos va juda muhim janri deb tushuniladi. O'quvchilar o'quv lug'atlari bilan ishlaganda ma'lumot izlash, uni qayta ishlash va undan foydalanish jarayoniga jalb qilinadi. Bu jarayon esa talimiy xarakterga ega.

Ma'lumki, lug'at tuzish jarayoni katta ijodiy kuch va qattiq mehnatni talab qiladi. Tezaurus tipidagi lug'at tuzish esa, oxirgi yillar tajribasiga qaraganda, iloji yo'q hisoblanadi. Chunki u tilning deyarli barcha lug'aviy zaxirasini qamrab olishga intiladi. Buning yaqqol misoli- Grimmning katta olmon lug'ati 100 yildan uzoq vaqt tuzildi. Tarixning guvohlik berishicha uning I tomi 1852 -yilda, oxirgisi 1961-yilda bosib chiqarilgan. Mashhur Oksford lug'ati 50 yil davomida tayyorlandi, uni bosib chiqarish esa 1884-yildan 1928-yilgacha davom etdi. Uzoq vaqt davomida golland, daniya, shved va va rumin tillaridagi akademik lug'atlar chiqarilishi chozilib kelmoqda.

Lug'atlar tipologiyasidan ko'rinadiki, uning asosiy tarkibiy qismlari bu material tanlash, uni tashkil qilish va integratsiya qilish prisiplaridir. Bularning har biri bir nechta komponentni o'z ichiga oladi. Material tanlashda turli cheklanishlar qo'yiladi: xronologik, normativ, funksional stilistik va h.k. Materialni tashkil qilish an'anaviy alfavit usulidan tashqari boshqa xususiyatlar bo'yicha olib borilishi mumkin. Materialni interpretatsiya qilish esa izohlash, definitsiya, gloss va shuningdek tarjimali ekvivalentlarni o'z ichiga olishi mumkin. Izohli lug'atlarni tuzishda esa tuzuvchilar leksika tanlashning quyidagi tamoyillariga asoslanadi:

- 1) normativlik;
- 2) sinxronlik;

3) aholi o'rasidagi gipotetik qatlamning individual lug'aviy zaxirasiga asoslanish;

4) ma'lum mavzular doirasiga asoslanish.

Akademik va o'quv lug'atlarni tuzishda umumiy prinsip-lug'atning tarkibini uning amalda qo'llanilishiga mos kelishi kerak.

Yuqorida aytilaganlarga xulosa qilib shuni aytish mumkinki lug'atning fuksiyasiga qarab leksika tanlash tamoyillaridan foydalaniladi. Masalan, turli xil maqsadlar uchun qo'llanma tor mutaxassislik terminologiyasidan tashqari leksikaning normativlik tamoyilini taqozo etadi: o'qtishning har qanday maqsadlariga yo'naltirilgan qo'llanma sinxronlikka asoslanadi; aktiv va passiv leksika bilan ishlash uchun mo'ljallangan o'quv lug'atlari faqatgina individual lug'at zaxirasiga emas, balki ma'lum bir mavzularga asoslangan.

30000 ta so'zgacha hajmli lug'atlar aktiv (onomasiologik) va passiv (semasiologik)ga olingan holda tuzilishi kerak. Ularda leksikani aniq va maqsadli tanlash uchun lug'atning tematikasi, kinga va nimaga mo'ljallanganligi ko'rsatilishi kerak.

Lug'at tuzishda leksikani tanlashga alohida e'tibor berish zarur. Ilmiy tekstlarda so'zlar 4ta turga tasniflash qabul qilingan:

- 1) terminlar;
- 2) faqat ba'zi hollarda termin bo'ladigan so'zlar;
- 3) umumiy ilmiy so'zlar;
- 4) umumiy ishlatiladigan so'zlar.

Maxsus lug'atlar tuzish nazariyasi va amaliyoti ilmiy-texnik leksikografiyaning obyekti ekanligi ma'lumdur. Maxsus lug'atlarda tasvirlash obyekti avvalo termindir. Shuning uchun ushbu tushunchada batafsil taxtash zarur. Turli mualliflarning ishlarini o'rganib ushbu tushunchaga berilgan turli tariflarni uchratish mumkin. "Termin" so'zi lotincha so'z bo'lib, "terminus" ya'ni "chegara, cheklov" ma'nolarni anglatadi. Lekin "termin" so'zining yagona izohi yo'q. Masalan, D.N.Ushakov, "termin" so'ziga quyidagichan tarif bergan:

- 1) so'z bilan ifodalangan tushuncha;

2) ma'lum bir tushuncha nomini anglatuvchi so'z yoki bu muhitda, kasbda biror narsani anglatuvchi maxsus so'z yoki ibora.

1983-yilda chop etilgan filosofik ensiklopedik lug'atda termin so'zining bir nechta tarifini topish mumkin.

N.I.Kondakovning "Mantiqiy lug'atida" ("Логический словарь") termin so'zi u yoki bu muhit kasbda ma'lum bir tushunchani aniq nomi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi qilib belgilanadi.

R.Kotsourek termin so'zini kasbiy vaziyatlar elementi sifatida ko'radi: insonlar (mutaxassislar), buyum (tematik asos), terminlar va tushunchalar, ya'ni mutaxassislar fiklasining asosiy birliklari.

V.P.Danilenkoning fikricha, termin o'z mohiyati bo'yicha ilmiy, ishlab chiqarish texnologik tushunchaning nomini anglatuvchi maxsus sohada foydalaniladigan so'zdir yoki so'z birikmasidir.

Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki har bir sohada "termin" tushunchasi o'ziga xos tushuniladi. Ushbu tushunchaga berilgan bir nechta tarifdan bittasini tanlab olish mushkuldir. "Termin-kasbiy faoliyatda qabul qilingan va ma'lum vaziyatlarda foydalaniladigan maxsus so'z yoki so'z birikmasidir. Termin-kasbiy bilimlar ma'lum sohasi tushunchalari sistemasiga kiruvchi tushunchani so'zdagi ifodasi".

Termin bilan ishlashda uning asosiy belgilarini inobatga olish kerak:

- a) Ma'nosining maxsus xarakteri;
- b) Ma'lum bir terminologik sistemaga tegishliligi;
- c) Tushunchaga aniq mos kelishi;

Shuni aytish kerakki terminlar "sof, toza", ya'ni faqat maxsus ma'noga ega va aralash, ya'ni maxsus ma'noni maxsus ma'nolarning aralashib ketgani.

Zamonaviy til terminlaridan quyidagilarni talab qiladi:

1. Termin unga til qoidalari va normalariga javob berishi kerak.
2. Termin sistemali bo'lishi kerak.
3. Termin kontekstdan nisbatan mustaqillik xosdir.
4. Terminologiyaga tushunishga halaqit beradigan sinonimlik xos emas

5. Terminlar ekspressiv neytraldir.

Ko'pincha professional bo'lmaganlar barcha chetdan kelgan va tushunarli bo'lmagan so'zlarni ham terminologiya deyishadi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, terminologiya- bu qaysidir fan yoki texnika sohasida tarixiy shakllangan tushunchalarni aks ettirgan terminlar majmuasidir.

Terminologiya haqida gapirganda lingvistlar:

- a) terminlar haqida fan;
- b) ma'lum bir til tarkibidagi barcha maxsus leksikani;
- c) fan va texnikaning alohida sohasiga xizmat qiluvchi maxsus leksikani farqlashadi.

Terminologik lug'atni tuzish uchun leksikograf leksika tanlab olish bo'yicha katta ish qilishi kerak. Faoliyati jarayonida u avvalo terminlarga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarni xisobga olishi kerak.

Yuqorida aytilganidek, termin-bu bilimning bir sohasida maxsus tushunchalarni ifoda etadigan so'z yoki so'z birikmasidir. Terminga alohida nuqtai-nazar bilan qarab bo'lmaydi. U doim biror bir semantik birlikning qismi bo'lib keladi.

Terminlar muloqotning yuqori sohasiga xizmat qiladi, hamda eng avvalo yozma nutqda qo'llaniladi. Ular nomenklatura xususiyatiga ega, ya'ni bilim yoki faoliyatning u yoki bu sohasi bilan bog'liq bo'lgan ma'lum premetlar va tushunchalar nomlaridir. Terminlarning xususiyati bu ularning bitta ma'noga ega ekanligi va ular ifoda etayotgan tushunchani aniqlihi. Lekin fanda terminlarning ko'p ma'noliligi ham ma'lum. Bunda gap ilm-fanning u yoki bu sohasiga tegishli bo'libgina qolmay, balki umummilliy leksik zaxirasida kengroq ma'noga ega bo'lgan terminlar haqida boradi. Masalan, "atmosfera" so'zi fizika sohasiga tegishli termin bo'lib:

- 1) yerning gazzimon qobig'ini anglatadi;
- 2) bosim o'lchov birligini anglatadi;

Umuman esa bu so'z, o'rab turgan muhit, atrof-muhit yoki ta'sir degan ma'nolarga ega.

Shunday qilib terminlarning ba'zi bir semantik xususiyatlarni ajratish mumkin:

1. sistemalilik
2. kontekstga nisbatan mustaqillik
3. qisqalik
4. bir ma'nolilik
5. sinonimlarning yo'qligi
6. ekspressiv neytrallik
7. aniqlik
8. mantiqiylik

Minimum-lug'atlarni tuzishda qo'llanma va darsliklar tekstlaridan terminlarni ajratib olishda qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Bu qiyinchiliklar avvalo shu bilan bog'liqki, ma'lum leksik birliklar ushbu tekstlarda faqatgina termin bo'lib qolmay, shu vaqtning o'zida umumiy leksikaga ham kiradi. Masalan, tabiatshunoslik darsligining lug'atida "nafas olish" (das Atmen) so'zi termin bo'lib keladi, lekin u umumiy leksikaga ham kiradi.

Yuqorida aytilganlardan xulosa qilish mumkinki minimum-lug'at tuzishda matnlarni yaxshi o'rganish va terminologik xarakterga ega bo'lgan leksik birliklarni ajratish kerak.

Umumiy leksikadan farq qilgan xolda maxsus leksika xamma tomondan qo'llanilmaydi va u faqatgina shu sohada band bo'lganlar uchun tushunarlidir. Boshqacha qilib aytganda, biror kasbni bilish shu kasbga xos bo'lgan maxsus leksikani bilishni taqozo etadi. Demak maxsus leksikaga insonning kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan leksik vositalar kiradi.

Maxsus leksikaga birinchidan keng ommaga ma'lum bo'lgan tushunchalarni bildiradigan inson faoliyati yoki ma'lum bir konkret bilimning maxsus sohasidagi so'zlar kiradi, ikkinchidan, keng ommaga ma'lum bo'lmagan maxsus soha tushunchalarini anglatadigan so'zlar, uchinchidan, keng ommaga ma'lum bo'lgan lekin mutaxassis bo'lmaganlar orasida, kundalik turmushda boshqa ma'noga ega so'zlar. Tabiiyki, ushbu leksikaning uch guruhiga turlicha yondashish kerak.

Maxsus leksikaning oddiy, shu jumladan tarjima lug'atlari bilan qamrab olinish darajasi haqidagi masala amaliy leksikografiyaning murakkab muammolariga kiradi. Murakkabligi shundaki lug'at tuzuvchi umumiy prinsipni, ya'ni tor mutaxassislik so'zlarini chetlab o'tgan xolda faqat umumiy foydalaniladigan terminologiyani kiritadi.

Bu bir tomondan ba'zi mualliflar o'zlarning lug'atlariga o'zlari bilangan bo'lgan maxsus sohaning muhim deb bilgan terminlarini kiritisa, ikkinchi tomondan boshqa mualliflar ushbu bilimlar bo'lmagani uchun ushbu terminlarni kiritmaydi.

“Kasbiy leksika” va “terminologiya” tushunchalarini farqlash qiyin hisobalnadi. Ba'zi lingvistlar ularning ma'nosini bir xil deb biladilar, boshqalar ularning umumiy bo'lgan xususiyatlari bor deb aytadilar, yana boshqalar esa ular umuman.

1.4.Lug'at tuzish tamoyillari va klassifikatsiyasi.

Leksikografiya nazariyasining vazifasi shundaki, lug'atning har bir turi ekstremal masalani yechish muhim leksik materialning maksimal darajasida lug'atdan ma'lumot olishga minimal vaqt sarflansin. Lug'atlarga ma'lum bir talablar mavjud:

- 1) lug'at adresati (o'quvchilar, talabalar va boshqalar);
- 2) lug'at turi (bir tilli yoki tarjima);
- 3) lug'at hajmi;

4) poligrafik ko'rinishi (bolalarga mo'ljallangan lug'atlar yorqin rangli rasmi bo'lishi lozim. har bir o'quv lug'ati formati bo'yicha qulay kitob shaklida bo'lishi kerak. ma'lumot topishda tezlik va osonlik- bu o'quv lug'atining yana bir belgisidir).

Shunday qilib, lug'at bu so'zlar haqida ma'lumot bo'lgan asardir. "Bu lug'atning turidagi qat'iy nazar belgisidir. Demak, lug'at statyasi lug'atning asosiy birligi hisoblanadi. Uning strukturasi so'zning mazmuniy strukturasi aks ettiradi" deydi rus lug'atshunosi Denisov.

Lug'atlar, avvalo, maqsadi va mo'ljaliga ko'ra ikkiga bo'linadi:

- umumiy lug'atlar;
- maxsus lug'atlar.

Umumiy lug'atlar keng o'quvchilar ommasiga, maxsus lug'atlar esa tor doiradagi kishilar-alohida soha mutaxassislariga mo'ljallangan bo'ladi.

Har ikkala tur lug'atlar ham o'z o'rnida yana ikkiga bo'linadi:

- ensiklopedik lug'atlar;
- filologik lug'atlar.

Demak, lug'atlarni umumiy ensiklopedik lug'atlar va maxsus ensiklopedik lug'atlar, umumiy filologik lug'atlar va maxsus filologik lug'atlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq va qulaydir.

Umumiy ensiklopedik lug'atlar. Ma'lumki, umumiy ensiklopedik lug'atlar alfavit tartibida bo'lib, ularda so'zlar emas, balki shu so'zlardan anglashilgan tushunchalar uchun asos bo'lgan narsalar, tarixiy voqealar, tabiiy va ijtimoiy hodisalar, shaxslar, geografik nomlar haqida ma'lumot beriladi va lug'at

maqolalari lugʻatdagi tavsif lugʻat maqolasi deyiladi. Lugʻat yozilgan tilni tushunuvchi keng oʻquvchilar ommasiga moʻljallangan boʻladi. « Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi» ana shunday lugʻatlardan biridir. Unda shunday deyiladi: OʻzME (Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi) universal ensiklopediya boʻlganligi uchun fan-texnika va madaniyatning barcha sohalariga oid maʼlumotlar muxtasar tarzda ifodalanib, u insoniyat sivilizatsiyasining muhim yutuqlari haqidagi bilimlar majmuidan iboratdir. Prezident I.Karimov OʻzME ga yozgan soʻzboshisida u haqida «Ensiklopediyamiz oʻzining ilmiy jihatdan chuqur, ayni vaqtda ommabopligi bilan keng kitobxonlar orasida obroʻ-eʼtibor topib, jahonning nufuzli qomuslari qatoridan munosib oʻrin olishiga ishonchim komil» deb, uning funksiyasini alohida taʼkidladi.

Maxsus ensiklopedik lugʻatlar. Fan-texnika, sanʼat va madaniyatning maʼlum bir sohasiga oid tushunchalarni shu soha qiziquvchilari va mutaxassislari uchun moʻljallab tavsiflaydi. Bunday lugʻatlar sifatida soha ensiklopedik lugʻatlari - «Meditsina ensiklopediyasi», «Физический энциклопедический словарь », «Лингвистический энциклопедический словарь » kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Umumiy ensiklopedik lugʻatlardan farqli ravishda maxsus ensiklopedik lugʻatlar tor sohaga doir tushunchalarni keng va batafsil sharhlaydi. Masalan, rus tilida yaratilgan « Лингвистический энциклопедический словарь»da shunday deyiladi: «Bu lugʻat turli ixtisosliklardagi filolog-tilshunoslar va ilmiy xodimlarning keng doirasiga, shuningdek, tilshunoslik bilan yaqin boʻlgan sohalar- psixologlar, mantiqshunoslar, filosoflar, etnograf va adabiyotshunoslarga moʻljallangan».Maxsus ensiklopedik lugʻat soha mutaxassislari uchungina zarur boʻlgan tushunchani ana shu soha ilmiy uslubiga xos ifoda bilan tasvirlaydi.

Umumiy filologik lugʻatlar barcha soha kishilari, keng foydalanuvchilar ommasiga moʻljallangan izohli, imlo, orfoepik, tarjima lugʻatlardir. « Oʻzbek tilining izohli lugʻati» ,«Ruscha- oʻzbekcha lugʻat» ana shunday lugʻatlar sirasiga kiradi. Shu boisdan « Oʻzbek tilining izohli lugʻati» da shunday deyiladi: «Lugʻat keng oʻquvchi lar ommasiga-tilshunoslar, oʻrta va oliy maktab oʻquvchilari va oʻqituvchilari, yozuvchilar, jurnalistlar, gazeta va nashriyot xodimlari va oʻzbek

tiliga qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo'ljallangan.» (1-tom, 5-bet) Izohli lug'at so'zning ma'nosini shu tilda sharhlaydi, izohlaydi va so'zni shu ma'nosi bilan nutq tarkibida beradi.

Umumiy izohli lug'atda lug'aviy birliklarning barcha - grammatik, uslubiy, frazeologik birliklar tarkibida qatnashishi, omonimik, qaysi tildan o'zlashganlik belgilari ko'rsatiladi.

O'zbek tilining bu tipdagi lug'ati birinchi marta 1981 -yilda Moskvada nashr etildi. «Boy leksikografik an'analarning davomi sifatida o'tgan asrning 50-80 - yillari mobaynida o'zbek tilshunosligida erishilgan va o'zbek leksikografiyasini tilshunoslikning tez rivojlanib borayotgan mustaqil sohasiga aylantirgan ulkan muvaffaqiyatlari tufayli yuzaga kelgan». « O'zbek tilining izohli lug'ati» o'zbek xalqi tarixi va ma'naviyati taraqqiyotida ulkan hodisa bo'ldi. «Lug'atning asosiy vazifasi o'zbek adabiy tilining so'z boyligini to'plash va tavsiflash bilan birga, uning me'yorlarini belgilab berish va mustahkamlashdan ham iboratki, unda adabiy tilning imlo, talaffuz, so'z yasash va ishlatish me'yorlari tavsiya etildi».

Demak, o'zbek tilining ilk izohli lug'ati o'z oldiga qo'yilgan o'zbek adabiy tilining so'z boyligini to'plash va tavsiflash hamda uning me'yorlarini belgilashdan iborat tarixiy vazifasini bajardi. Biroq tilshunoslik fanining rivoji, o'rganish manbaiga yondashuv omillari va metodologiyasining taraqqiyoti, jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichida ijtimoiy fanlarga qo'yiladigan yangicha talablarning yuzaga kelishi ijtimoiy ong shakllaridan bo'lgan tilning ilmiy talqinida ham yangicha qarashlar shakllanishiga olib keladi .

Leksemalarning lug'aviy ma'nosi talqinida lison va nutqni izchil farqlash talabi har bir so'zga xos barqaror lisoniy va o'tkinchi nutqiy jihatlarni ajratishni taqozo qiladi. Nutqiy hodisalar cheksizlik va rang-baranglik tabiatiga ega bo'lganligi bois leksikografik talqinlarning obyekti bo'la olmaydi. Lug'atlar so'zlarga xos barqaror jihatlarnigina qamrab olish imkoniga ega. Demak, semasiologiya sohasida amalga oshirilgan izchil sistemaviy tadqiqotlar lug'atni tartiblashtirishda muhim tayanch omil bo'lib, leksikografni cheksiz nutqiy ma'nolarni tartibga keltirish, lug'atlarga kiritish hamda izohlash tashvishidan xalos

etadi. Ushbu birlik (leksemaning)ning asl zotiga daxldor bo'lgan unsumni ajratish va tavsiflash leksikografik talqinda muhim ahamiyatga ega.

Demak, lug'atda bir so'zning, deylik, 20-30 tagacha nutqiy ma'nolarini izohlash, uning empirizmga asoslanganligini ko'rsatsa, faqat sememalarga tayanish lug'atning sememik tahlil doirasidan tashqariga chiqa olmaganligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, izohli lug'at keng o'quvchi lar ommasiga mo'ljallangan bo'lib, buning uchun leksikografik talqinda ijtimoiy shartlangan ma'nolardan kam qo'llanishga ega, terminologik ma'nolar talqiniga o'tib borilmog'i lozim.

Ma'lumki, ko'pgina grammatik shakllar so'zning ma'noviy tabiatiga grammatik o'zgarishlar beradi. Fe'lining nisbat shakllarida esa boshqacharoq holni ko'ramiz. To'g'ri, affiks qo'shilgandan keyin hosil bo'lgan yasama forma affiks qo'shilmasdan ilgari formaga nisbatan ham leksik, ham grammatik tomondan o'zgaradi, ya'ni ma'no ko'payishi yoki o'zayishi mumkin. Biroq bunda lug'aviy ma'no modifikatsiyalanishining qay darajada ekanligini aniqlash maqsadga muvofiq. Bunda ikki holatni:

1. Lug'aviy ma'no modifikatsiyasi yangi lug'aviy ma'no hosil bo'lish darajasi.

2. Shakl so'zda yuzaga keltirayotgan birikuvchanlik o'zgarishlari ma'noviy, sintaktikmi yoki ham ma'noviy ham sintaktikmi ekanligini muayyanlashtirish lozim bo'ladi.

Nisbat shakllari lug'aviy shakl hosil qiluvchi vositalar sirasida markaziy o'rinni egallab, fe'l leksema lisoniy mohiyatini modifikatsiya qiluvchi muhim omil sanaladi. Aytilganidek, nisbat shakllari lisoniy lug'aviy ma'noni modifikatsiyalaydi, biroq bu hodisa yangi lug'aviy ma'no vujudga kelishi darajasidami? Yangi lug'aviy ma'no (xoh u nutqiy, xoh lisoniy bo'lsin) nisbat shakllari ta'sirida vujudga kelsa, so'z alohida leksikografik birlik sifatida lug'at maqolasida alohida tavsiflanishga haqli.

Ma'lumki, lug'atlarning vazifasi nafaqat biror tilning lug'at boyligi haqida tasavvur uyg'otish, balki shu bilan birgalikda, so'zlarning semantikasini, lisoniy

qiymatini belgilash, ular ma'nolarining sistemaviy munosabatlarini berish ham bo'lmog'i lozim. Chunki bu ko'p ma'noli so'zlarning ma'nolarini yorqinroq chegaralab olish, yaqin ma'noli so'zlarning semantik qiymatini to'g'ri anglash imkonini beradi.

So'zlarning semantik mohiyati ularning o'z semantik tizimida ochiladi, shu boisdan so'zlararo semantik munosabatlarning leksikografik metatilga muvofiq ravishda lug'atlarda aks etishi va ichki ma'nolarni farqlovchi muhim yechimlarning leksikografik talqinga «yedirib» yuborilishi muayyan ma'no bilan so'zning semantik tizimdagi o'rnini aks ettirgan lug'atlarning amaliy qiymatini yanada oshiradi. Chunki semantik munosabatlarni ochish asosidagina tilning asosiy vazifalaridan biri bo'lgan farqlash, differentsatsiya amalga oshiriladi. Masalan, sinonimik munosabatlarda so'zlarning ifoda böyoqlari orasidagi farqlar ochilsa, tur-jins munosabatlarida ma'noviy noaniqlik muayyanlik tomon intiladi. Paronimik munosabatlarda esa butunlikning bo'linishi asosida butunda qismni, qismda butunni ko'rish, ravshan ilg'ash imkoni vujudga keladi.

Imlo lug'ati so'zlarni amaldagi imlo qoidalariga muvofiq ravishda qanday yozish kerakligini o'rgatadi. Demak, bunday lug'atlar hammabop va amaliy tabiatga ega bo'ladi. Bunday lug'atlarga S.Ibrohimov va M.Rahmonovlarning 1956, 1964 larda «O'qituvchi» nashriyoti tomonidan» nashr etilgan, S.Ibrohimov, E.Begmatov va A.Ahmedovlarning 1976 yilda «Fan» nashriyoti tomonidan chop etilgan kirill yozuviga doir imlo lug'atlarini kiritish mumkin.

1995 yilda Sh. Rahmatullaev va A.Hojiyevlar tuzgan lotin imlosidagi imlo lug'ati «O'qituvchi» nashriyoti tomonidan chop etildi.

Orfoepik lug'atda so'zlarning to'g'ri adabiy talaffuzi ko'rsatiladi. Bunday lug'at birinchi marta kichik hajmda M.Sodiqova va O'.Usmonova tomonidan «o'zbek tilining orfoetik lug'ati» nomi bilan 1977 yilda «O'qituvchi» nashriyoti tomonidan bosib chiqarildi.

Maxsus filologik lug'atlar tor o'quvchi lar ommasi-tilshunoslik bilan shug'ullanuvchilar va boshqa ilmiy tadqiqotchilarga mo'ljallangan bo'ladi. o'zbek tilining morfem, chastotali, ters, o'zlashma so'zlar, frazeologizmlar,

sinonimlar, antonimlar, omonimlar, dialektizmlar, terminologik, etimologik lug'atlari shular jumlasidandir.

Morfem lug'atlarda leksik birliklarning tarkibi-morfemik strukturasi ko'rsatiladi. Bunday lug'at birinchi marta A.G'ulomov, A.N.Tixonov, R.Q.Qo'ng'urovlar tomonidan tuzilib, 1977 yilda «O'qituvchi» nashriyoti tomonidan chop etilgan.

Chastotali lug'atda so'zlarning qo'llanishi darajasi haqida ma'lumot beriladi. I.A.Kissen muallifligida chop etilgan «Словарь наиболее употребительных слов современногоузбекского литературного языка» (Tashkent, 1970) lug'ati chastotali lug'at bo'lib, unda ma'lum bir tanlangan matnlarda so'zlarning qo'llanilish chastotasi (takrorlanganlik miqdori) ko'rsatiladi. Shunday lug'atlar S.Rizaev, Z.Hamidov, N.Axmatov, N.Mamadalieva, R.Zohidov tomonidan alohida asarlar bo'yicha tuzilgan.

Ters lug'atda so'zlar teskari tomondan oxiridan alfavit tartibida joylashtiriladi. Bunday lug'at ham lingvistik lug'at bo'lib, R.Qo'ng'urov va A.Tixonovlar tomonidan «Обратной словарь узбекского языка» nomi bilan 1969- yilda Samarqandda chop etilgan.

O'zlashma so'zlar lug'atida biror bir tilga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar izohlanadi. Bu tipdagi lug'atlar izohli lug'atlarning bir ko'rinishidir. Ular qaysi tildan o'zlashgan so'zlarni izohlashiga ko'ra turlicha nomlanadi. Masalan, O.Usmon va R.Doniyorovlar tomonidan 1965- yilda nashr etilgan «Ruscha-internatsional so'zlar izohli lug'ati»da rus va boshqa yevropa tillaridan kirib kelgan so'zlar izohlangan.

Frazeologik lug'atlar ham maxsus lingvistik lug'atlarning bir turi bo'lib, Sh.Rahmatullaev tomonidan tuzilgan « O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati» (Toshkent, 1978) bunday lug'atning mukammal namunasidir.

Onomastik lug'atlar o'zbek leksikografiyasining alohida sohasiga aylandi. Bunday lug'atlarda atoqli otlar (onomosionimlar)dan, masalan, toponimlardan yoki antroponimlar izohlanadi va ular etimologik lug'atlarning o'ziga xos ko'rinishidir. Bunga T.Nafasov tomonidan tuzilgan «Janubiy O'zbekiston toponimlarining

izohli lug'ati»ni S.Qoraevning joy nomlarining izohli lug'atini misol qilib keltirish mumkin.

Dialektal lug'at o'zbek tilining dialekt va shevalariga xos bo'lgan leksik birliklarni qayd qiladi. Bunday lug'atlar umuman o'zbek tilining barcha shevalariga xos so'zlarni yoki ma'lum bir sheva so'zlarini izohlashga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. 1971- yilda mualliflar jamoasi tomonidan «Fan» nashriyotida chop etilgan « O'zbek xalq shevalari lug'ati»ni bunga misol qilib keltirish mumkin.

Terminologik lug'atlar ma'lum bir sohaga tegishli so'zlarni izohlaydi. Terminologik lug'atlar izohli yoki tarjima ko'rin ishlariga ega bo'ladi. Demak, terminologik lug'atlarni bir tilli va ko'p tilli lug'atlarga bo'lish mumkin.

Tarjima lug'atlar bir tildagi so'z ma'nosining boshqa tilda ifodalashishi, berilishini ko'rsatadi.

Tarjima lug'atlari ikki tilli yoki ko'p tilli lug'atlarda so'z ikkitadan ortiq tilda beriladi. Bunday lug'atlar juda kam.

Tarjima lug'atlari qanday birliklarni ifodalashiga ko'ra turlicha bo'ladi:
leksik birliklar lug'ati;
frazologizimlar lug'ati;
har ikkala birliklar lug'ati;
maqollar lug'ati.

1.5. Zamonaviy o'quv lug'atlari tuzishning umumta'lim maktablari uchun ahamiyati.

Leksikani o'rgatish tilni o'rgatishning asosini tashkil qiladi. Leksikani mukammal egallamasdan nutq faoliyatining turlariga gapirishga, eshitib va o'qib tushunishga, fikrni yozma bayo qilishga o'rgatib bo'lmaydi. O'quvchi so'zlarni eshitib, o'qib taniy olmasa, bilmasa, eshitgan va o'qilgan nutqning mazmuni mavhumligicha qoladi. Tinglab tushunishning leksik tomoni ustida ishlaganda, uni qabul qila olish, taniy olish mashqlari ishlatiladi, chunki leksikani tinglab qabul qilish, taniy olish ham o'z xususiyatiga, qiyinchiligiga egadir. Gapirishning leksik tomonining o'ziga xos xususiyati mavjud. O'quvchi uni bilmasa gapira olmaydi, bilganda ham o'rniga qo'ya bilishi kerak. O'qishning leksik tomoni ham alohida qiyinchilik tug'diradi. O'quvchi o'qishda ko'rib qabul qiladi. Shuning asosida o'qib ma'lumot olish, tushunish uchun so'zlarni o'rgangan bo'lishi kerak.

Yozma nutqning leksik tomoni ustida ham alohida ishlash kerak. O'quvchi u orqali mazmunli, to'g'ri ma'lumot bera olishi uchun so'zni yoza olishi talaffuz qila olishi, o'qiy olishi zarur. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, hammasi uchun leksika kerak. Shu sababdan o'quvchilarga nutq faoliyatlarini o'rgatishda leksikaning o'rnini muhimdir.

Chet tili dasturi bo'yicha nutq faoliyatlarini o'rgatishda leksik materialni o'rgatish maqsad va vositadir. Dasturda har bir sinf uchun leksik minimum soni ko'rsatilgan. Unda 5-sinf uchun 300ta leksik birlik, 6-sinf uchun 200ta, 7-sinf uchun 200ta, 8-sinf uchun 200ta, 9-sinf uchun 100ta leksik birlik belgilangan. Hammasi bo'lib dastur talabi bo'yicha umumta'lim maktabini tugallagan o'quvchilar o'z nutq, faoliyatlarida 1000ta leksik birlikni erkin ishlata olishlari lozim. Bu leksik minimum quyidagi prinsiplar asosida tanlanadi:

1. so'zning qo'llanish darajasiga ko'ra;
2. so'zning muayyan mavzuda ishlatilishiga ko'ra;
3. so'zning boshqa so'zlar bilan birika olish imkoniyatiga ko'ra;
4. so'zning qo'shimchalar orqali yangi so'z yasash imkoniyatiga ko'ra;
5. so'zning gap tuzishda ishtirok eta olishlik imkoniyatiga ko'ra;

6. soʻzning koʻp maʼnoli boʻlishiga koʻra;
7. soʻzning nutq uslublarida ishlatilishiga koʻra;
8. sinonim soʻzlardan bittasini tanlash asosida.

Tanlangan leksika oʻrta maktab leksik-minimumni tashkil qiladi hamda har sinf uchun leksik minimum ajratiladi. Leksik birlik oʻquvchining oʻziga oʻqitish orqali, oʻxshashligi boʻyicha oʻqitish orqali, qisman oʻqilish belgilarini berish orqali, oʻqituvchining doskadagi yozuviga oʻxshatib yozdirish orqali oʻrgatiladi. Bunda asosan oldin yaxshi oʻzlashtiruvchi oʻquvchi oʻqiydi yoki talaffuz qiladi qolgan oʻquvchi lar uni joʻr boʻlib takrorlaydilar (5-6 sinflarda), Keyin yana oʻqimagan, talaffuz qilmaganlar yakka oʻqitiladi, talaffuz qildiriladi. Oʻqitilgan yangi soʻzlarni kartochkaga rangli ranglar bilan yozib koʻrsatish, oʻqitish yanada qiziqish uygotadi. Oʻzbek leksikografiyasi uzoq va boy tarixga ega. Biroq hozirgi kun nuqtai nazaridan olib qaraganda, lugʻatchiligimizda baʼzi muammolar ham mavjud. Ayniqsa, kundan kunga rivojlanib borayotgan davlatimiz, fanimiz va madaniyatimizni yuksaltirish singari ezgu vazifalar lugʻatchilik muammosini va lugʻatxonlik madaniyatini keskin hal qilish lozimligini koʻrsatmoqda. Mustaqillikka erishgan oʻzbek xalqining maʼnaviy-maʼrifiy yuksalishi, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va uning oldiga qoʻyilgan vazifalarni bajarish, xususan, ijodiy tafakkur sohibini tayyorlash, taʼlimning ilk boʻgʻinlaridanoq lugʻatlardan keng, maqsadli foydalana oladigan, izchil va mantiqiy soʻz bankiga ega oʻquvchi ni tarbiyalash ham aynan oʻzbek lugʻatchiligini rivojlantirish va ommalashtirish tamoyili bilan uzviy bogʻliq.

Lugʻatchiligimizdagi bugungi eng dolzarb muammo – oʻquv lugʻatlarining yoʻqligidir. Afsuski, soha bu borada ancha orqada qolgan. oʻquv lugʻatlari –har qanday tur va hajmdagi, aynan biror tilda soʻzlashishni oʻrgatishga moʻljallangan leksikografik asar hisoblanadi. Oʻzbek leksikografiyasida lugʻatlar yaratish borasida ancha yutuqlar qoʻlga kiritilgan boʻlsa-da, oʻquv lugʻatchiligi oqsab kelmoqda. Hozirgi kunda oʻquvchilarimiz quyidagi lugʻatlardan foydalanib kelishmoqda:

1. “ O’zbek tilining imlo lug‘ati”: (Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. T., 1995. Tiraj: 15000 nusxa).
2. “Imlo lug‘ati” (Hojiyev A., Abdullayev Y., Zafarova S. T. 1-nashri, 1964. 4-nashri 1981. Tiraj: 100000).
3. “ O’zbek tilining orfoepik lug‘ati” (Hojiyev A. tahr. ostida T., 1977. Tiraj: 13000).

Lug‘atlardan foydalanish madaniyati saviyasining shakllanganligining yorqin dalillaridan biri shuki, 1995-yilda atigi 150000 nusxada nashr etilgan, “O’zbek tilining imlo lug‘ati”ni hozir ham kitob do’konlaridan topish mumkin. Vaholanki, agar maktab o’quvchi larining har yillik miqdori qariyb 6000000 ekanligini nazarda tutsak, bu imlo lug‘atidan 400 o’quvchiga 1 lug‘at to’g’ri keladi. Shunisi ham borki, lotin yozuviga asoslangan hamda hozirgi davr talabi bo’lgan bu imlo lug‘atidan nafaqat o’quvchi chilar, balki talabalar, ma’rifat va madaniyat xodimlari, davlat va tashkilot organlari foydalanishga ehtiyojmand. Demak, bu holda, 1500-2000 kishiga atigi 1 ta lug‘at to’g’ri kelishi kelib chiqmoqda. Imlo lug‘ati bilan ta’minlanish rivojlangan davlatlarda 15-20 talabgorga bitta to’g’ri kelishini hisobga olsak, O’zbekistonda amaliy imlo lug‘ati bilan ta’minlanish qariyb 70-100 baravar kamdir. Maktab o’quvchi lari uchun yangi yozuvda chiqarilgan “Imlo va talaffuz lug‘ati” ham mavjud bo’lib, sanoqli nusxalarda chiqarilgan. Bu lug‘atdan ham keng omma foydalanish imkoniyatiga ega emas. Shunisi achinarlik, o’zbeklarda umuman 2000 kishiga 1 ta lug‘at to’g’ri kelsa, ruslarda bitta oilaga 4-5 ta lug‘at to’g’ri keladi. Bunaqada madaniy saviyaning yuksalishi-yu, ilm-fan taraqqiyoti haqida so’z borishining o’zi foydasizdir.

Xullas, shu kabi jiddiy muammolarni hisobga olib, hozirgi o’zbek leksikografiyasi o’quv lug‘atlarini, xususan, uyadosh so’zlar lug‘ati, o’quvchilar uchun sinonimik so’zlar lug‘ati, shakldosh so’zlar lug‘ati, o’quvchilar uchun izohli lug‘at (hayvon nomlari asosida (qar: Jumaeva Saodat, Murodova Zulkumor. MB. Buxoro -2004), ideografik lug‘atlar tuzish kabi masalalarni o’z oldiga dolzarb vazifa qilib qo’ydi.

Hozirgi kunda leksikograflarning oldiga qo'ygan eng muhim vazifalaridan biri maktab o'quvchilarini bilimining darajasi va sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan masalalarni yechish yo'lida doimiy izlanishda bo'lib, chet tillarini integrallashtirib o'qitish uchun zamonaviy lug'atlar yaratishdir. Ushbu ishning maqsadi nemis tili o'rganiladigan maktablarda o'qitishning boshlang'ich bosqichida lug'at-minimum uchun leksik birliklar tanlashdir.

Xulosa

Ushbu “Zamonaviy o’quv lug’atlari tuzish tamoyillari (maktablar uchun)” nomli bitiruv malakaviy ishimni o’rganish va yaratish davomida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin deb hisoblayman.

O’zbekistonda tom ma’noda tarixiy ahamiyatga ega bo’lgan ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning yuksak samarasi bugungi kunda dunyo hamjamiyati tomonidan haqli ravishda e’tirof etilmoqda. Xususan, 2012 yil 17 fevral kuni Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan **“Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan yosh avlodni tarbiyalash — mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti”** mavzuidagi xalqaro konferensiya uzluksiz ta’lim va yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashning milliy modelini yaratishda O’zbekiston tajribasini o’rganishga bag’ishlanganligi bejiz emas.

Yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda, biz tanlagan taraqqiyot yo’lining tarkibiy qismiga, aniqroq aytadigan bo’lsak, kelajagimizning mustahkam poydevoriga aylanib borayotgan ta’lim sohasidagi dasturlarimizni o’z vaqtida, uzoqni ko’zlab ishlab chiqqanimiz va amalga oshirganimiz naqadar to’g’ri bo’lganini bugun mamlakatimiz erishgan yuksak samara va natijalar yaqqol namoyon etmoqda.

Bu borada MDH davlatlari orasida birinchilardan bo’lib qabul qilingan ta’lim tizimining mustahkam huquqiy asoslarini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar, shu jumladan, O’zbekiston Respublikasining **“Ta’lim to’g’risida”**gi Qonuni, **Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi** dasturilamal bo’ldi.

Bugungi kunda xorijiy tilni bilish o’ta muhim ahamiyat kasb etganligi bois chet tili o’qitish tizimini ham isloh etish, dars jarayonlarida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o’qitishning ilg’or usullarini qo’llash ta’limdagi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Zero, jamiyat taraqqiyotida xorijiy tillar tobora yuksak ahamiyat kasb etmoqda. Har bir fuqaroning kamida bitta xorijiy tilni bilishi zamon talabiga aylanib bormoqda. Sababi, jahon miqyosida globalizatsiya va integratsiya jarayonlari, texnik taraqqiyot, turli millat, ellatlarning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa sohalar

bo'yicha yaqin hamkorligi, birlashishi ro'y bermoqda. SHuningdek, jonajon Vatanimizning dunyo maydonida taraqqiyparvar davlat sifatida tanilib, o'z mavqei va o'rniga ega bo'lishi ham ayniqsa, istiqbolimiz egalari — yoshlarimizdan xorijiy tillarni mukammal bilishni taqozo etadi.

Prezidentimiz tomonidan 2012 yil 10 dekabrda e'lon qilingan **“Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi Qarori chet tili ta'limini rivojlantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni zamon talablariga mos yetuk mutaxassis etib tayyorlash kabi ezgu maqsadlarga yo'naltirilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Ushbu Qarorning ahamiyatli jihati ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o'rganishni tashkil qilish, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv-uslubiy manbalar bilan ta'minlashni yanada takomillashtirish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish, o'sib kelayotgan yosh avlodning chet tillarga qiziqishini yanada oshirish va o'z navbatida, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, shu bilan bir qatorda ularning jahon tsivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun sharoit va imkoniyatlar yaratish ko'zda tutilgan.

2013-2014 o'quv yilidan boshlab respublikaning barcha xududlarida umumta'lim maktablarining birinchi sinfidan chet tillarni bosqichma-bosqich o'qitilishi belgilanligi xorijiy tilni mukammal o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur Qaror yordamida farzandlarimiz kelajakda zamonaviy fan-texnika yutuqlarini mukammal o'rganib, xalqaro darajadagi yuksak kadrlar bo'lib yetishishlari va mustaqil O'zbekistonning yanada rivojlanishiga munosib hissa qo'shishlari shubhasiz. Shuningdek, 2013 yilning 1 martigacha bo'lgan muddatda har bir ta'lim bosqichida chet tillarni bilish darajasining aniq mezonlarini nazarda tutuvchi yangi ta'lim standartlarini tasdiqlash, umumta'lim maktablarining

birinchi sinfdan boshlab chet tillar ta'limini uzluksiz joriy etish, barcha ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari va rejalari, darsliklar ishlab chiqish, lug'atlar, ta'lim jarayonini tashkil etish uchun yetakchi xorijiy o'quv markazlarini, chet tillar bo'yicha xalqaro ekspert va mutaxassislarni jalb etish haqidagi Yurtboshimizning qimmatli takliflari yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, yorug' istiqboli yo'lidagi g'amxo'rlikning yana bir tasdig'idir.

Ushbu Qaror tegishli davlat organlari, shu jumladan, barcha ta'lim muassasalari va chet tili o'qituvchilari zimmasiga yosh avlodni mustaqil davlatimizning dunyo hamjamiyatidagi nufuzini yanada oshiruvchi yuksak salohiyat va bilim egalari qilib tarbiyalashdek ulkan vazifalar yuklaydi.

Chet tili darslarini tubdan isloh qilish va uzviylikni ta'minlash darkor ekan, jumladan biz maktablar uchun yaratilayotgan lug'atlar tarkibi bilan ham jiddiy shug'ullanmog'imiz zarur. Prezidentimizning **“Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi Qaroriga binoan endi chet tillari maktablarda 1-sinfdanoq yo'lga qo'yildi. Avvallari o'quvchilar 5-sinfdan chet tillarini o'qiy boshlar edi. Endi bugungi 1-sinf o'quvchisi 5-sinfga yetganda anchagina lug't boyligiga, til ko'nikmalariga ega bo'ladi. Bu biz tilshunoslarga esa katta mas'uliyat yuklaydi.

Lug'at – bilimlar xazinasini, madaniyatimiz, ilm-fan va san'at, dunyoqarashimizni yuksaltirishga qaratilgan ulkan zahmatlar mevasi. Lug'atlar tuzilishi, ya'ni leksikografiyani – igma bilan quduq qazishga o'xshatish mumkin. Shuning uchun har bir leksikografik asar – yuksak tahsinga, hurmatga loyiq javohirdir.

Lug'atlardan olam-olam bilim, ma'lumot olamiz. U fan – texnika, san'at, adabiyot bo'yicha yangiliklarni bayon etib, nutq madaniyatimiz va so'z boyligimizni oshiradi. Lug'at bilan ishlash - maroqli, qiziqarli va zavqli. Lug'atlar, ensiklopediya va ma'lumotnomalar bilan ishlashni tamoyil qilib olgan kishi esa savodli, ongli va madaniyatli insondir.

Leksikografiya – tilning mana shunday dolzarb masalalari bilan shug'ullanuvchi sohasi ekan, ishonch bilan ayta olamizki, o'zbek madaniyatini,

ilmu fanini, ma'naviyatini yuksak rivojlangan mamlakatlar safiga olib chiqishdek mas'uliyatli vazifalarni bajarishga o'zbek lug'atchiligi munosib hissa qo'sha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". O'zbekiston Respublikasi oliy majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutqi. Toshkent, 1997
2. Karimov I.A. "Barkamol avlod orzusi". Toshkent, 2000
3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch". Toshkent, „Ma'naviyat“, 2008
4. Karimov I.A. "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2012
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Toshkent, 2003
6. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", 1997
7. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, 1997
8. Oliy Ta'limning davlat Ta'lim standartlari, Toshkent, 2011
9. A.Avloniy. Fan, Ta'lim, jamiyat. Andijon, 2009
10. Umarxo'jayev M.I. "Olmon tili leksikologiyasi va frazeologiyasi". Andijon 2010.
11. Степанова М.Д., Чернищева И.И., "Лексикология современного немецкого языка". М., 1979.
12. Девкин В. Д. "Немецкая лексиграфия": Учебное пособие для вузов- М.: Высшая школа, 2005
13. Ольшанский И.Г. "Лексикология": Современный немецкий язык. Lexikologie: Die deutsche Gegenwartssprache: Учебник для вузов (гриф)- М.: Академия, 2005.
14. Степанова М.Д. "Лексикология современного немецкого языка": Учеб.пособие для пед.вузов (гриф)- М.: Академия, 2003.
15. Шевелева Л.В. "Лексикология современного немецкого языка": Курс лекций: Учеб.пособие- М.: Высшая школа, 2004.

16. Abduazizov A. “Tilshunoslik nazariyasiga kirish” Toshkent, “Sharq” 2010.
17. Hojiyev A., Abdullayev Y., Zafarova S. “Imlo lug‘ati” Toshkent, 1964. 1981.
18. Hojiyev A. “ O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati” Toshkent, 1977.
19. Mirtojiyev. M. “O‘zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi”, Toshkent, 2000.
20. Nurmonov A. “O‘zbek tilshunosligi tarixi” Toshkent, “O‘zbekiston”, 2002.
21. Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. “ O‘zbek tilining imlo lug‘ati” Toshkent, 1995.
22. Usmonov S. “Umumiy tilshunoslik”, Toshkent, 1972.

Internet saytlari:

1. www.google.uz
2. www.arxiv.uz
3. www.wikipediya.org
4. www.ziyonet.uz
5. window.edu.ru
6. deutscherklub-rgph.ru
7. www.linguanet.ru
8. filologia.su/nemeckaya-leksikologiya
9. www.nemetskij-online.com